An’anaviy ta’limiy o‘yinlar doimo o‘quvchilar bilimini baholash va mustahkamlashga qaratilgan. Mutaxassislarning fikricha, o`yin va topshiriqlarga tasodif elementlarni qo‘shish ishtirokchilarning faollik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Xorijiy tillarni o`qitishda professionallik tomon maqolasida ta`kidlanganidek, tasodif elementlarini o‘z ichiga olgan topshiriq va mashg`ulotlar o‘quvchilarga real dunyodagi jumboqlarga duch kelishga yordam beradi, bu esa ularning faolligi va izlanuvchanligini oshiradi. Topshiqirlarga nafaqat bilim balki tafakkurga asoslangan "omadli tanlov"ning kiritilishi talabalar uchun stressni kamaytirishga yordam beradi, va ayniqsa o`zlashtirishi pastroq bo`lgan o`quvchilar uchun muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini oshiradi.

O‘yinlar tashkil qilishda tasodif va bilimga asoslanish

Ta’limiy o‘yinlarga tasodifiy shartlar yoki komponentlar orqali natijani oldindan aytib bo‘lmaslik hissini qo‘shish o‘yinchilarning faolligini oshirishi mumkin. Tasodifiy savollar, natijalar, ballar- tasodifiy komponentlarga misol bo‘lib, ular ijobiy hayajon uyg‘otishi va o‘yinchilarni o‘z taktikalarini o‘zgartirishga undashi mumkin. Aksincha, bilimlarga asoslangan komponentlar o`rganuvchilarni faqatgina o‘z bilimlarini amalda qo‘llashga majbur qiladi, bu esa ularning materialni o‘zlashtirishini kuchaytirib, tanqidiy fikrlash, vaziyatdan kelib chiqib tez qaror chiqarish kabi hislatlarini cheklab qo`yishi mumkin. Bunday o`yinlar rivojlangan mamlakatlar ta`lim tizimida o`zini oqlagan va oqlab kelmoqda. Bizning oliy ta`lim tizimida, ayniqsa xorijiy tillarni o`qitishda «Bamboozle», «Jeopardy», «Quizlet» «Kahoot» kabi online bajariladigan ham jamoaviy, ham yakka tartibdagi o`yinlar talabalarni qiziqtirish va murakkab bo`lgan mavzularni ham osonroq o`zlashtirishda faol qo`llanilib kelinmoqda.

Bilim va tasodifiy imkoniyatga asoslangan o‘yinlarning afzalliklari:

- Motivatsiya va jalb qilish

O‘quvchilarni qiziqtirish ta’limiy o‘yinlarning asosiy afzalliklaridan biridir. Hamarining (2016) tadqiqotlariga ko‘ra, to`siqlar va mukofotlar kabi o‘yin mexanikasi motivatsiyani sezilarli darajada oshirishi mumkin. Talabalar motivatsiyaga ega bo‘lsa, o‘quv jarayonida faol ishtirok etish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi. Tasodifni o‘z ichiga olgan o‘yinlar kutilmaganlik hissini qo‘shish orqali faollikni yanada oshirishi va o‘rganishni yanada yoqimli qilishi mumkin.

Masalan, Barata (2013) ta`kidlashicha, o‘yinga asoslangan o`qitishdan foydalangan talabalar an’anaviy ta’lim usullaridan foydalanganlarga qaraganda yuqori darajadagi faollik va samaradorlikni ko‘rsatdilar.

Mavzuni yaxshi o`zlashtirish

Axborotni saqlash o`quvchilardan olgan bilimlarini hayotga tadbiq qilishni talab qiladigan o‘quv o‘yinlari orqali kuchaytirilishi mumkin. 2013-yilda Barata va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, o‘yinga asoslangan ta’limdan foydalangan o‘quvchilar an’anaviy o‘qitish usullaridan ko‘proq foydalangan o‘quvchilarga nisbatan yangi mavzularni yaxshiroq va ko`proq eslab qolishlari o`z isbotini topdi.

Bilim va omadga asoslangan mashg`ulotlar bilan olib borilgan ta’limda ishtirok etgan o‘quvchilarning yangi ma`lumotni uzoq muddat xotirada saqlash qobiliyati sezilarli darajada yaxshilanganligini ko‘rsatadi. O‘yinlar interaktiv bo‘lganligi sababli, o‘quvchilar g‘oyalarni yoqimli va qiziqarli tarzda o`rganib chiqishlari mumkin, bu esa keyinchalik ijobiy taassurotlar orqali ma’lumotlarni uzoq muddatgacha eslab qolishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlash qobiliyatining o‘sishi

Tanqidiy fikrlash qobiliyatini bilim va tasodifni birlashtirgan o‘yinlar orqali rivojlantirish mumkin. Tasodifiy hodisalar natijalariga ko‘ra, o‘yinchilar vaziyatni baholashi, tanlov qilishi va o‘z taktikasini o‘zgartirishi kerak. So`nggi yillarda o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘yinlarga asoslangan ta’lim muhitlari o‘quvchilarni o‘z qarorlarini tahlil qilishga va harakatlarining oqibatlarini o‘ylab ko‘rishga undaganligi sababli, ular yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi mumkin.

Masalan, o`quvchilar iqtisodiy qarorlarni qabul qilishga taqlid qiluvchi o‘yinda kutilmagan bozor hodisalariga duch kelishlari mumkin, bu esa strategiyani tahlil qilish, oldindan ko`ra olish va lozim bo`lsa o`zgartirish ko`nikmalarini hosil qilish, yangi tushunchalarni mustahkamlashdan tashqari, o‘z tanlovlari va ehtimoliy natijalar haqida tanqidiy fikr yuritishga yordam beradi.

Ko‘pgina ta’limiy o‘yinlar o‘yinchilarning hamkorligi va ijtimoiy o‘zaro ta’sirini rag‘batlantiradi. Bu element, ayniqsa, sinf sharoitida juda muhim, chunki u muloqot va jamoaviy hamkorlikni rivojlantiradi. Deterding (2011) fikriga ko‘ra, vazifalarni hamkorlikda bajarigan o‘quvchilar tengdoshlari bilan sog‘lom va faol do‘stona aloqalarni shakllantirish ehtimoli yuqori bo‘lib, bu o‘yinga asoslangan ta’limning ijtimoiy afzalliklari mavjudligini ko`rsatadi. Hamjihatlik va do‘stlikni targ‘ib qiluvchi umumiy tajriba bilim va tasodifni birlashtirish orqali yaratilishi mumkin. Jamoaviy o‘yin ishtirokchilari ko‘pincha umumiy maqsadga erishish uchun topshiriqni

hamkorlikda bajarishlari kerak, bu esa ularning ijtimoiy birdamlik ko‘nikmalarini oshirishi va sinfda jamoa tuyg‘usini rivojlantirishi mumkin.

Masalan, «Bamboozle» o‘yinida bilim almashish va savollarga javob berish uchun o‘quvchilar samarali muloqot qilishadi, jamoaviy qarorlar chiqarishadi, savollarga kelishilgan holda javob berib, bu jarayon barcha guruh a`zolarining barchasini bilimi darajasi va qiziqishlaridan qat`iy nazar birdek qamrab oladi.

5. Turli xil ta’lim uslublariga moslashish qobiliyati

Bu kabi o`yinlar turli qiziqish va yondashuvga ega o`quvchilarni ham faolroq bo`lishga undaydi. Gardnerning ko‘p sonli intellektlar nazariyasiga ko‘ra (1983) individlar ta’limni afzal ko‘rishlari va kuchli tomonlari bilan farqlanadilar. Bilim va tasodifni birlashtirgan o‘yinlar kinestetik, vizual va eshitish qobiliyatiga ega o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilishi va o`rganishning turli xil yo‘llarini taklif qilishi mumkin.

Ta’limiy bilim va tasodifga asoslangan o‘yinlarning afzalliklari ko‘p bo‘lsa-da, inobatga olish kerak bo‘lgan ba`zi kamchiliklari ham mavjud.

- Tasodif va bilim o‘rtasidagi to‘g‘ri muvozanatni topish bu kabi o‘yinlarni yaratishdagi asosiy muammolardan biridir. Agar o‘yin tasodifiy elementlar ya`ni bilimga asoslanmagan shartlar, savollar yoki yutuqli va jarimali materiallarga asoslangan bo‘lsa, u o‘zining ta’lim maqsadlariga putur yetkazishi ehtimoldan holi emas. Boshqa tomondan, agar u faqat bilimga urg‘u bersa, o‘yinlarni jozibador qiladigan faollik elementi bo‘lmasligi mumkin. Mazmunli o‘quv tajribasini yaratish uchun pedagoglar ushbu komponentlarni qanday qo‘shish haqida har tomonlama o‘ylashlari, buning uchun esa o`quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlarini hisobga olishlari lozim.
- Bilimlarni baholash

O'qituvchilar «bilim va omad» ga asoslangan o‘yinlarning samaradorligini baholashda ma'lum qiyinchiliklariga uchrashi mumkinligi o‘yin paytida sodir bo‘ladigan o‘zlashtirish an’anaviy baholash usullari bilan yetarli darajada qamrab olinmasligi bilan izohlanadi. O‘qituvchilar o‘yinga asoslangan ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda baholashning yangi yondashuvlarini yaratishlari kerak. Tengdoshlar taqrizlari, o‘z-o‘zini baholash va shakllantiruvchi baholar bunga misol bo‘la oladi. Ya'ni o`quvchilar bir-birlarining harakatlari, topshiriqni bajara olishlari, qanchalik kamchiliklarga yo‘l qo‘yishlari va mavzuni o‘zlashtirganlik darajalarini o‘qituvchi tomonidan tuzilgan aniq kategoriyalarga asoslangan rubrika yoki taqrizlar asosida baholash yanada samarali bo‘lishi va baholovchi o‘quvchining o‘zi uchun ham kerakli xulosalarni chiqarishiga imkon yaratadi.

- Resurslarning mavjudligi

Oliy ta'lim mashg'ulotlarida ushbu innovatsion o‘yinlarni amalga oshirish uchun ko‘proq vaqt, tajriba va izlanish lozim. Bu kabi resurslar internet tarmoqlari, xalqaro

oliy ta'lim online resurslari, online kutubxonalar, xorijiy top universitet axborot manbalarida ko`p uchraydi va aynan kurs, bilim Daraja va yoshga asoslangan holda kategoriyalarga joylashtirilgan. Ammo har bir o`quvchi, har bir guruh- individualdir, shuning uchun tayyor materiallarni o`qitish konteksiga moslashtirish o`qituvchidan alohida mahorat va mehnatni talab qiladi

Ta’limiy o‘yinlar omadga asoslangan elementlarni o‘z ichiga olgan taqdirda ham o‘zining tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolishi mumkin. Bu yondashuv o‘quvchilarning qiyinchiliklarga moslashish va tiklanish qobiliyatini rivojlantirish orqali ta’lim sifatini yaxshilaydi. Bilimlarni tasodif elementlari bilan birlashtirgan o‘yinlar o‘quvchilarni hamma narsani nazorat qila olmaydigan kutilmagan vaziyatlarni boshqarishga o‘rgatadi. Tasodifiy elementlarning mavjudligi faqatgina bilimlarga asoslangan natijalarga e’tiborni kamaytirib, muvaffaqiyatga erishish nafaqat bilim balki tafakkur, tanqidir fikrlash hislatlariga ham bog`liq ekanligini ko`rsatib beradi.

Braunning (2017) ta’kidlashicha, "o‘yin orqali takroriy ta’sir o‘tkazish bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi."

Mashg‘ulotlarga tasodifiy elementlarni qo‘shish rag‘batlantiruvchi omillarni oldindan aytib bo‘lmasligi va hattoki oxirgi urinish ham muvaffaqiyatga olib kelishi mumkinligi bilan o‘quvchilarni bilim darajasidan qat‘iy nazar o‘ziga qiziqtirib, mashg`ulotning oxirigacha ularning diqqatini saqlab tura oladi. Bu o‘yinlar nafaqat o‘zining ta’limiy ahamiyatini saqlab qoladi, balki shu bilan birga qiziqishlari va o‘rganish jarayoni turli bo‘lgan o‘quvchilarni o‘zining inklyuziv yondashuvi bilan darsga jalb etadi. Dars mashg‘ulotlarida tasodifiy elementlar va shartlarning ahamiyati ta’lim paradigmalari rivojlanib borgani sari ortib boradi, bu esa o‘quv natijalari bilan bir qatorda o‘quvchilarning faolligini oshirish uchun yangi istiqbollarni taqdim etadi.

Qo‘llanilgan adabiyotlar:

1. Barata, G., Gama, S., Xorxe, J., va Pimentel, M. (2013). Engagement and Learning with Game-Based Learning. Proceedings of the International Conference on Game-Based Learning, 1-10.

2. Brown, D. (2017). The Impact of Repeated Exposure in Game-Based Learning on Knowledge Retention. Journal of Educational Psychology, 59 (4), 431-445.

3. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From Game Design Elements to Gamefulness: defining "gamification." Proceedings of the 2011 annual conference on Human Factors in Computing Systems, 1-10.

4. Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences.

5. Gee, J. P. (2003). What video games have to teach us about learning and literacy. Computers in the Schools, 20 (3-4), 1-23.

6. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2016). *Gamifikatsiya ish beradimi?--gamifikatsiya bo‘yicha empirik tadqiqotlarning adabiy sharhi.* 2014-yil 47- Gavayi xalqaro konferensiyasi.

7. Guzaloy Asqarovna Sobirova & Madina Khaydarovna Boboyeva, Analysis of the use of Prepositions in English-Uzbek Translations. AMERICAN Journal of Library and Information Science Innovation. Volume 2, Issue 11, 2024 ISSN (E): 2993-2777.

8. G. A. Sobirova, & S. M. Topilova, CULTURAL LAYER OF A WORD: CONNOTATION AND DENOTATION. 2024. https://worldlyjournals.com.

9.Sobirova Guzaloy, Professionalism and ELT. 2023. https://doi.org/10.55640/iscrc/3214. pp. 486-490.

THE USE OF ART THERAPY IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Khayitova Aziza Rakhimovna
Teacher of the Interlanguage department of Foreign philology faculty
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
azizarakhimovna@gmail.com

Abstract: This article explores the integration of art therapy techniques into English language instruction for preschool-aged children. By synthesizing theories of art therapy, early childhood development, and second language acquisition, this paper argues that creative interventions such as drawing, music, and role-playing enhance engagement, reduce anxiety, and facilitate holistic language learning. Empirical case studies and theoretical frameworks, including Vygotsky’s sociocultural theory and Krashen’s Affective Filter Hypothesis, underscore the pedagogical value of art therapy in fostering linguistic and emotional growth. Challenges related to teacher training, resource allocation, and cultural sensitivity are discussed, alongside recommendations for curriculum design and professional development.

Keywords: *art therapy, English language teaching, preschool education, emotional development, bilingualism*

Abstrakt: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘qitishda art-terapiya usullarini joriy etish masalalari o‘rganiladi. Shuningdek, san’at terapiyasi, bolaning erta rivojlanishi va ikkinchi tilni o‘zlashtirish nazariyalarini umumlashtirib, rasm chizish, musiqa va rolli o‘yinlar kabi ijodiy aralashuvlar faollikni oshirishi, xavotirni kamaytirishi va tilni yaxlit o‘rganishni osonlashtirishi ta’kidlanadi. Empirik keyslar va nazariy asoslar, jumladan, Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi va Krashenning ta’sirchan filtr gipotezasi, badiiy terapiyaning til va hissiy o‘sishni rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyatini ta’kidlaydi. O‘qituvchilarni tayyorlash, resurslarni taqsimlash va madaniy sezgirlik bilan bog‘liq muammolar muhokama qilinadi, o‘quv dasturlarini loyihalash va malakasini oshirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Tayanch iboralar: *art terapiya, ingliz tilini o‘qitish, maktabgacha ta’lim, hissiy rivojlanish, bilingualizm*

Абстракт: В данной статье рассматривается интеграция техник арт-терапии в преподавание английского языка детям дошкольного возраста. Синтезируя теории арт-терапии, раннего развития ребенка и овладения вторым языком, в данной работе утверждается, что творческие вмешательства, такие как рисование, музыка и ролевые игры, повышают вовлеченность, уменьшают тревожность и облегчают целостное изучение языка. Эмпирические кейсы и теоретические рамки, включая социокультурную теорию Выготского и

гипотезу аффективного фильтра Крашена, подчеркивают педагогическую ценность арт-терапии в развитии языкового и эмоционального роста. Обсуждаются проблемы, связанные с подготовкой учителей, распределением ресурсов и культурной чувствительностью, наряду с рекомендациями по разработке учебных программ и профессиональному развитию.

Ключевые слова: *арт-терапия, обучение английскому языку, дошкольное образование, эмоциональное развитие, билингвизм*

Introduction: The global emphasis on bilingualism has intensified the demand for innovative English language teaching (ELT) strategies in early childhood education (ECE). Preschoolers (ages 3–6) undergo rapid cognitive, social, and emotional development, making this period critical for language acquisition (Krashen, 1982). However, traditional ELT methods often prioritize rote memorization over experiential learning, potentially stifling creativity and elevating anxiety (Malchiodi, 2012). Art therapy—a modality leveraging creative expression to improve mental health and communication—offers a promising alternative. By integrating art therapy into ELT, educators can address the affective and cognitive dimensions of learning simultaneously. This article examines how art therapy techniques, grounded in developmental psychology and language acquisition theories, enhance English proficiency in preschool settings.

Theoretical Framework

Art Therapy: Definitions and Principles

Art therapy is defined as the therapeutic use of art-making to improve emotional, cognitive, and social functioning (American Art Therapy Association, 2013). Rooted in psychoanalytic and humanistic traditions, it emphasizes non-verbal expression as a bridge to verbal communication (Malchiodi, 2012). For preschoolers, who often lack the vocabulary to articulate complex emotions, art serves as a “symbolic language” (Kramer, 2000, p. 45), enabling them to process experiences and build self-efficacy.

Early Childhood Language Acquisition

Vygotsky’s (1978) sociocultural theory posits that learning is mediated by social interaction and cultural tools. In language acquisition, play acts as a “zone of proximal development” (ZPD), where children experiment with language through guided activities (Vygotsky, 1978). Similarly, Krashen’s (1982) Affective Filter Hypothesis suggests that low-stress environments optimize language retention by reducing emotional barriers. Art therapy aligns with these principles by fostering collaborative, play-based learning.

Intersection of Art Therapy and Language Learning

Art therapy’s dual focus on creativity and emotional regulation complements communicative language teaching (CLT) methodologies. CLT prioritizes authentic interaction over grammatical accuracy (Richards & Rodgers, 2014), while art therapy provides a non-judgmental space for linguistic experimentation. For example, drawing while labeling objects in English merges visual and verbal modalities, reinforcing vocabulary through multisensory engagement (Isbell & Raines, 2013).

Art Therapy Techniques in English Language Teaching

Visual Arts

Drawing, painting, and collage-making allow children to externalize thoughts while practicing vocabulary. A study by Lee (2019) found that preschoolers who drew scenes from English stories demonstrated 30% higher retention of target words compared to peers using flashcards. Activities like “color-by-word” (e.g., “Color the apple red”) integrate instruction with motor skill development.

Music and Movement

Songs and rhythmic activities leverage preschoolers’ natural affinity for melody. Music aids phonetic awareness, as seen in a study where children exposed to English nursery rhymes showed improved pronunciation (Medina, 1993). Movement-based games, such as “Simon Says” with English directives, reinforce comprehension through kinesthetic learning (Isbell & Raines, 2013).

Drama and Role-Playing

Role-playing immerses children in imaginary scenarios, such as “grocery store” or “doctor’s office,” where they negotiate meaning in English. Winston (2010) observed that dramatic play increased spontaneous speech among bilingual preschoolers by 40%, as it contextualizes language within socially meaningful interactions.

Case Studies and Empirical Evidence

Study 1: Visual Arts in Vocabulary Acquisition

In a 2020 intervention, Smith et al. introduced weekly drawing sessions paired with storytelling in English. Over six months, participants (N=50) scored significantly higher on vocabulary assessments than the control group, highlighting the role of visual representation in lexical retention.

Study 2: Music-Based Interventions

Johnson (2018) implemented a music-rich curriculum in a Turkish preschool, using English songs for daily routines (e.g., cleanup songs). Children exhibited faster command recall and greater enthusiasm for English lessons, underscoring music’s motivational benefits.

Study 3: Drama for Conversational Skills

A dual-language program in Canada incorporated puppet theater to teach English greetings and expressions. Post-intervention, 75% of children initiated conversations in English, compared to 35% pre-intervention (Chen & Brown, 2021).

Challenges in Implementation

Teacher Training and Resources

Few educators receive dual training in art therapy and ELT, leading to inconsistent implementation (Eisner, 2002). Schools may also lack materials like art supplies or musical instruments.

Assessment and Evaluation

Quantifying art therapy’s impact on language proficiency remains challenging, as creative outcomes are often qualitative. Standardized tests may overlook gains in confidence or creativity.

Cultural and Individual Differences

Art preferences vary culturally; for example, collaborative mural-making may clash with individualistic norms (Malchiodi, 2012). Additionally, children with sensory sensitivities might find certain materials overwhelming.

Recommendations for Practitioners and Policymakers

Curriculum Integration

Develop hybrid curricula aligning art activities with language objectives (e.g., “Paint and Describe” sessions).

Professional Development

Workshops co-led by art therapists and ELT specialists can equip teachers with cross-disciplinary strategies.

Family and Community Engagement

Involve families in art-English projects, such as creating bilingual storybooks, to reinforce learning at home.

Conclusion: Art therapy offers a transformative approach to preschool ELT, harmonizing emotional well-being with language development. While challenges exist, strategic investments in training and culturally responsive practices can maximize its potential. Future research should explore longitudinal impacts and digital adaptations (e.g., virtual art platforms).

References

1.American Art Therapy Association. (2013). *What is art therapy?* https://arttherapy.org/about-art-therapy/

2.Chen, L., & Brown, R. (2021). Puppet theater and bilingualism: Enhancing English conversation skills in preschoolers. *Early Childhood Education Journal, 49*(4), 621–630. https://doi.org/10.1007/s10643-020-01103-y

3.Eisner, E. W. (2002). *The arts and the creation of mind*. Yale University Press.

4.Isbell, R., & Raines, S. C. (2013). *Creativity and the arts with young children* (3rd ed.). Cengage Learning.

5.Johnson, M. (2018). Singing into language: Music interventions in preschool ELT. *Journal of Early Childhood Literacy, 18*(2), 156–174. https://doi.org/10.1177/1468798416654125

6.Kramer, E. (2000). *Art as therapy: Collected papers*. Jessica Kingsley Publishers.

7.Krashen, S. D. (1982). *Principles and practice in second language acquisition*. Pergamon Press.

8.Lee, S. (2019). Drawing to speak: Visual arts in preschool ELT. *Early Childhood Research Quarterly, 47*, 112–120. https://doi.org/10.1016/j.ecresq.2018.11.003

9.Malchiodi, C. A. (2012). *Handbook of art therapy* (2nd ed.). Guilford Press.

10.Medina, S. L. (1993). The effect of music on second language vocabulary acquisition. *FEIS News, 6*(3), 1–8.

11. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.

PRACTICAL METHODS TO BOOST ENGLISH LANGUAGE SKILLS IN YOUNG LEARNERS

Yunusova Zilola
UzJMCU
zilola27.78@mail.ru

Abstract: The article emphasizes the value of introducing English to children at an early age, especially in today's increasingly interconnected world. Early proficiency in English can open doors to a wide range of opportunities and positively impact future career prospects. Although teaching English to young learners presents certain challenges, it can be both manageable and rewarding when approached correctly. Working with children is a unique experience—demanding yet enjoyable—as they are naturally energetic, have limited attention spans, and acquire language according to specific developmental stages. These characteristics necessitate thoughtful planning and adaptability from educators. Effective English instruction hinges on a solid understanding of how children acquire language and the use of engaging strategies to sustain their motivation. Given that children primarily learn through play and imitation, this paper delves into several key areas: foundational principles of teaching English to young learners, qualities of an effective language teacher, the importance of early foreign language education, teachers’ social and psychological preparedness, the emotional and physical characteristics of young learners, essential classroom roles of teachers, an overview of the Total Physical Response (TPR) method, and practical strategies for beginner English teachers.

Keywords: *role-play, teaching technique, flexibility, social skills, cognitive skills.*

The popularity of learning English as a second language continues to grow steadily. As a result, English is now commonly introduced at early stages of education, including kindergartens, preschools, and primary schools, either as a second or foreign language. This growing trend has led to the development of a specialized area within English language teaching focused on young learners. Modern theories of language acquisition emphasize that children learn most effectively through exploration, experimentation, and intrinsic motivation. Young learners often acquire language rapidly from their peers, driven by a natural desire to play and form friendships. They are also influenced by their everyday surroundings and the media, especially when something captures their interest. Children’s motivations for learning a new language can vary and evolve over time. Given the widespread presence of English in daily life, children quickly recognize its usefulness and are encouraged to learn it for multiple purposes.

Language serves as a crucial tool for communication and plays a significant role in fostering social relationships among individuals. English, as the most widely taught foreign language, is introduced to children at the early stages of their education. The primary objective of teaching English to young learners is to instill motivation and build their self-confidence, preparing them to continue learning the language at higher levels of education. Some children grow up in multilingual households, acquiring two or three languages simultaneously, while others learn additional languages in preparation for immigration to a new country. In today's interconnected world, language learning has become an essential requirement for children planning to relocate internationally.

Philips (2002) revealed that young learners are the children from the first year of formal school (five or six years old) to eleven of twelve years of age. Scott (2009) points out young learners are divided into level one (5-7 years old) and level two (8-9years old). Based on the level of class, Ytreberg (1993) divided young learners into two groups: lower class (students are in the 1, 2 and 3 grade), and upper class (students are in the 4, 5 and 6 grade). Based on the explanation above, it is concluded that kindergarten students are categorized at level one (5-7 years old). The characteristic of young learner Scott & Ytreberg (1993:2-4) noted the characteristics of young learners as the active learners, learn through sensory and five senses, respond the language well through concrete things (visual things) rather than abstract things, interested in physical movements and real activities to stimulate their thinking. They will be enthusiastic if they are taught using fun activities or being involved in activities, love to play, and learn best when they are enjoying themselves. From the opinions above we can conclude, Young learners are typically children in the early stages of education, usually between the ages of 3 and 12, who are beginning their journey of acquiring knowledge and language skills. This group is characterized by their curiosity, ability to absorb information quickly, and reliance on playful, interactive methods of learning.

Phillips (1999) emphasized that young learners are holistic learners, meaning they engage with language based on its practical use and what they can accomplish with it, rather than viewing it as an intellectual exercise or abstract system. The primary goal is to focus on activities that are meaningful and practical from the child’s perspective. For young learners, most activities should involve physical movement and sensory engagement, ensuring that their learning experience is interactive and enjoyable.

According to Scott and Lisbeth (1992), children between the ages of 8 and 10 are proficient users of their mother tongue. At this developmental stage, they have a solid understanding of basic linguistic rules in their native language. They are also capable of grasping abstract concepts and symbols, generalizing language patterns, and organizing linguistic knowledge. Moreover, as Halliwell (1992) points out, children at this age can interpret meaning without needing to understand every individual word, use language creatively, enjoy exploring new ideas, have a vivid imagination, and are naturally inclined to communicate. In teaching contexts, it is

often assumed that children acquire a foreign language in the same way they learn their mother tongue.

In fact, children have a strong potential to learn foreign languages and often do so more rapidly than individuals who begin learning after puberty (McLaughlin, 1978). However, this view is not universally accepted. Long (1990) argues that children may not always be able to acquire a foreign language to its fullest potential. Supporting this, Hashemi (2008) emphasizes that teaching young children is a delicate and sensitive task due to several important factors. - Language learning class for them is their first year of schooling

- They are highly motivated and energetic
- They are new sponges to absorb
- They have various language back grounds
- They are easily frustrated if corrected immediately
- They are ready to imitate and participate
- They love group work
- They love independence
- They need respect and attention
- They easily learn from their environments
- They are great competitors

To ensure long-lasting language acquisition, teachers must prioritize meaningful and practical activities that resonate with the physical and tangible nature of young learners’ understanding. By keeping children active, motivated, and immersed in enjoyable learning experiences, educators can help them build a strong foundation in English. Ultimately, teaching English to young learners is not just about imparting linguistic skills but also about fostering a love for learning and creating a positive, supportive environment that encourages confidence and curiosity.

Used literature:

1.Hashemi , Masoud . (2008) Techniques in Teaching English to Children, Oral presentation, Islamic Azad University , Toyserkan Branch , Iran

2.Philiphs, S. (1996). Young Learners. New York: Oxford University Press

3.Scoot, Wendi A. and Lisbeth H. Ytreberg, 1990. Teaching English to Children. New York: Longman.

4.Smith, V. (2011). Words and pictures: Towards a linguistic understanding of picture books and reading pedagogy. In Ellis, S & McCartney, E. (Eds.), Applied Linguistics and Primary School Teaching. London: Cambridge University Press

5.Gaudart, H. 1990. “Using drama techniques in language teaching”. In Sarinee, A. (Ed.). Language Teaching Methodology for the Nineties. Anthology Series 24. Singapore: Regional Language Centre, 230-249

6.Holden, S. 1981. Drama in Language Teaching. Harlow: Longman.

7. Koperna, P. (2020). Sociotherapy as a support for social and emotional development of preschoolers and elementary school children. Teaching crossroads: 15th and 16thIPBErasmus Weeks (p. 35). Instituto Politécnico de Bragança

IV. TIL O'QITISH JARAYONIDA MADANIY, IJTIMOIY VA TILSHUNOSLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

O‘ZBEK TILI IZOHLI LUG‘ATLARIDA “BILISH” MA’NOSINI ANGLATUVCHI TAFAKKUR FE’LLARINING IFODALANISHI

Abidova Zilola Xabibullayevna
G‘arb tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ORCID ID: 0000-0001-5440-4041

Annotatsiya: Mazkur maqolada “bilish” ma’nosini anglatuvchi tafakkur fe’llarining O‘zbek tili izohli lugatlarida qanday izohlanganligi, ularning semantik turlari, kontekstual qo‘llanilishi va sinonimik qamrovi o‘rganiladi. Lug‘atlardagi fe’llar semantik birlik sifatida tahlil qilinib, ularning tafakkur jarayonidagi o‘rni ko‘rsatiladi. Shuningdek, bunday fe’llarning uslubiy xususiyatlari va morfologik shakllanishi ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *tafakkur fe’llari, bilish, izohli lug‘at, semantika, sinonim, kontekst.*

Аннотация: В данной статье рассматривается выражение глаголов мышления со значением "знать" в толковых словарях узбекского языка. Анализируются семантические типы, контекстуальное употребление и синонимический охват этих глаголов. Особое внимание уделяется их роли в процессе мышления, а также стилистическим и морфологическим особенностям.

Ключевые слова: *глаголы мышления, знать, толковый словарь, семантика, синоним, контекст*.

Annotation: This article examines the representation of thinking verbs meaning “to know” in Uzbek explanatory dictionaries. It analyzes their semantic types, contextual usage, and synonymic coverage. The paper also discusses the cognitive function of these verbs and investigates their stylistic and morphological characteristics.

Keywords: *thinking verbs, to know, explanatory dictionary, semantics, synonym, context*

Kirish qismi: O‘zbek tili leksik-semantik tizimi, o‘zining boyligi, qatlamliligi va kontekstga bog‘liq nozik semantik farqlari bilan ajralib turadi. Bu tizimda tafakkur (fikrlash) jarayonini ifodalovchi fe’llar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular insonning ongli faoliyatini, bilish, anglash, tushunish, eslash kabi murakkab psixolingvistik holatlarini til orqali ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, “bilish” ma’nosini anglatuvchi fe’llar nutqning barcha qatlamlarida – ilmiy uslubdan tortib og‘zaki so‘zlashuvgacha – keng qo‘llaniladi. Bu fe’llar mazmunan chuqur, semantik jihatdan qatlamli bo‘lib, tafakkur faoliyatining turli bosqichlarini, uning dinamikasini ifodalab bera oladi.

Ushbu maqolada o‘zbek tili izohli lug‘atlarida “bilish” jarayoniga doir fe’llarning qanday izohlangani, ularning leksik ma’nosi, konnotatsiyaviy

(qo‘shimcha) ma’nolari va sinonimik qamrovi tahlil qilinadi. Xususan, “bilmoq”, “anglamoq”, “tushunmoq”, “eslamoq”, “sezmoq” va “tanimoq” kabi fe’llarning semantik xususiyatlari lug‘at materiallari asosida yoritiladi.

Bu yerda alohida e’tibor beriladigan manba bu – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Hozirgi o‘zbek adabiy tili bo‘limi tomonidan tayyorlangan va **A.Madvaliyev tahriri ostida 2006–2008 yillarda chop etilgan 5 jildlik “O‘zbek tili izohli lug‘ati”** hisoblanadi. Mazkur lug‘at o‘zbek tilining zamonaviy leksik boyligini qamrab olib, har bir so‘zning semantik tavsifi, uslubiy belgilari va real kontekstlardagi qo‘llanish namunalarini beradi. Aynan shu lug‘at asosida “bilish” faoliyatini anglatuvchi fe’llar chuqur tahlil qilinib, ularning semantik oralig‘i va tafakkur faoliyatidagi o‘rni aniqlanadi.

Mazkur lug‘at nafaqat tilshunoslar, balki tarjimonlar, yozuvchilar va lingvodidaktika bilan shug‘ullanuvchi olimlar uchun ham muhim qo‘llanmadir. Undagi izohlar nafaqat ma’noni, balki so‘zning stilistik yuklamasi, funksional uslublardagi o‘rni, metaforik qo‘llanilishi va tarixiy semantik siljishlarini ham ochib beradi. Aynan “bilish” ma’nosidagi fe’llar ham bu lug‘atda keng yoritilgan bo‘lib, ularning ma’no tafovutlarini tahlil qilish orqali o‘zbek tili tafakkur olamining ko‘lami aniqlash mumkin. Shu tariqa, maqolaning asosiy maqsadi — “bilish” ma’nosini anglatuvchi tafakkur fe’llarining lug‘aviy izohlari, qo‘llanish xususiyatlari, stilistik belgilari hamda ular orqali ifodalanayotgan bilish bosqichlarini tizimli tahlil qilishdan iboratdir.

Asosiy qism: Izohli lug‘atlar - bu tilning “xotirasi”, ya’ni undagi har bir leksik birlikning mazmuniy chegaralari, uslubiy konnotatsiyasi, morfologik va sintaktik tavsifi bilan birga, ko‘pincha kontekstual misollar orqali yoritib beriladi. Masalan, A. Madvaliyev bosh muharrirligida chop etilgan 5 jildlik **“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”** (2006–2008) zamonaviy o‘zbek adabiy tilining boy leksik zahirasini chuqur va keng qamrovda tasvirlagan. Ushbu lug‘atda har bir so‘zga qisqacha va sodda izoh berilib, uning sinonimlari, ko‘plikdagi uslublar bo‘yicha ishlatilish o‘rni, ba’zida esa etimologik ildizi ham ko‘rsatiladi. Quyida bilish ma’nosini anglatuvchi bir necha fe’llarni ko’rib chiqamiz:

BILMOQ – Biror narsani idrok qilish, haqiqatdan xabardor bo‘lish, tushuncha hosil qilish ma’nolarini anglatadi. Ushbu fe’l izohli lug‘atda bir necha semantik yo‘nalishda tavsiflangan bo‘lib, har biriga mos kontekstual misollar keltirilgan.

1. **Fakt va haqiqatdan xabardorlik:**

Xalq har bir narsani biladi, eslaydi, unutmaydi. (A.Qahhor, Tanlangan asarlar) Bu misolda “biladi” fe’li xalqning ongli xotirasi, voqealarga nisbatan xabardorlik darajasini bildiradi. Bu umumiy bilish aktining ifodasidir.

2. **Til va millat tushunchasi bilan bog‘liq bilish:** *O‘zining tilini bilmagan odam-o‘z millatiga yotdir.(*S. Siyoyev, Til va qalb) Ushbu misolda “bilmagan” fe’li faqat xabardorlik emas, balki o‘zlikni anglatuvchi identifikatsiyaga urg‘u beradi. Tilni bilish – milliy ongni bildiruvchi semantik yuklamaga ega.

3. **Shaxsiy tanishlik va axborotga ega bo‘lish:** *Men u kishini yaxshi bilaman.* (Izohli lug‘atdan) Bu holatda “bilaman” fe’li biror shaxs haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lish, shaxsiy tanishlik orqali shakllangan bilimni bildiradi.

4. **Bilim va malakaga egalik:** *U matematika fanini yaxshi biladi.* (Izohli lug‘atdan) Bu kontekstdagi “biladi” o‘rganilgan, intellektual asosdagi bilimga egalikni anglatadi. Fe’l professional yoki akademik darajadagi idrokni ifodalaydi. Shunday qilib, “bilmoq” fe’li har xil kontekstda qo‘llanilib, turli xil tafakkur faoliyatini – faktni idrok qilishdan tortib, shaxsiy tajriba asosida tushunishga qadar – aks ettiradi.

5. **Anglamoq** – Yashirin yoki bilinar-bilinmas narsani fikr bilan ilg‘ab, tushunmoq, fahmlamoq ma’nolarini anglatadi.Ushbu fe’l izohli lug‘atda murakkab tafakkur faoliyatining chuqur bosqichlaridan biri sifatida tasvirlanadi. Fe’l konnotatsiyaviy (qo‘shimcha ma’no yuklamasi) jihatdan ham boy bo‘lib, unga nisbatan ko‘plab kontekstual holatlar mavjud.

1. Yashirin ma’noni tushunish (konnotatsiyaviy anglash):

Endi men bu gaplarning tag-ma’nosini angladim. (S. Siyoyev, Yurak sadosi)

Ushbu misolda “angladim” fe’li ochiq aytilmagan, lekin mavjud bo‘lgan ma’no taglayini, yashirin niyatni fahmlab olish holatini bildiradi. Bu - “tushunmoq”dan chuqurroq, intellektual sezgi bilan bog‘liq idrok aktidir.

2. Hissiy holatni idrok qilish:

O‘g‘lining ko‘zidagi nurlardan nimanidir angladi. (Mirmuhsin, Ulug‘bek xazinasi)

Bu kontekstdagi “angladi” so‘zi orqali inson o‘z yaqin kishisining ruhiy holatini, so‘zsiz, ichki sezgi orqali fahmlaydi. Bu - sezish bilan anglashning uyg‘unlashgan shakli bo‘lib, hissiy-intellektual idrokni ifodalaydi.

3. Sukunat, imo-ishoradan anglash:

Uning sukunatidan og‘ir g‘amni angladi. (Izohli lug‘atdan)

Mazkur misolda so‘z emas, balki sukunat – ya’ni bevosita muloqotsiz holat vositasi orqali fikrni ilg‘ash aks etgan. Bu anglash shakli og‘zaki muloqotga bog‘liq bo‘lmay, noverbal belgilar asosida vujudga keladi.

4. Nigoh, ohang yoki kinoyadan ma’no ilg‘ash:

Men uning nigohidan alamni anglardim. (Izohli lug‘atdan)

Bu holatda “anglardim” fe’li yuz ifodasi, nigoh orqali yetkazilgan hissiy signalni idrok qilishni bildiradi. Bu ham anglamoqning sezgi bilan uyg‘unlashgan shaklidir.

Umumiy xulosa: “Anglamoq” fe’li tafakkur faoliyatining murakkab, ko‘p qatlamli, ko‘pincha bevosita emas, balki fikr yuritish, ichki sezgi, intuitiv idrok orqali yuzaga chiqadigan bosqichini ifodalaydi. Bu fe’l ochiq faktni emas, balki yashirin yoki bilvosita tarzda anglashni bildiradi. U nutqda fikrning nozik, hissiy va ma’naviy jihatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Shuningdek, “anglamoq” ko‘pincha chuqur psixologik yoki falsafiy kontekstlarda uchraydi.

Adabiyotlar

1. Madvaliyev A. tahr. ost. O‘zbek tilining izohli lug‘ati – Toshkent: O‘zME, 2006. – B. 606

2.Abidova, Zilola Khabibullayevna. "Translation Problems of Verbs of Thought in Different System Languages." Journal of Intellectual Property and Human Rights 2.2 (2023): 1-5.

3.Abidova Zilola Xabibullaevna. Ingliz tilida f’el va f’el kategoriyalari tadqiqi

4.Til o‘qitish:yangi yondoshuv va innavatsiyalar. Toshkent sharqshunoslik Universiteti:2022/5/10 pp.92-95

5.Abidova, Zilola Xabibullayevna. "Ingliz va o ’zbek tillaridagi tafakkur fe’llarining tahlili." Scientific progress 3.2 (2022): 736-739.

6.Абдуллаева, М. (2022). Инглиз–ўзбек бадиий таржималарида муқобил вариантни шаклланиш ва ривожланиш босқичлари. Переводоведение: проблемы, решения и перспективы, (1), 78-81.

7.Zilola Xabibullayevna Abidova. “Tarjimalarda tafakkur fe’llarini semantik darajalanish usulllari.” “Topical Challenges in teaching Foreign languages” 186-192.

8.Abidova Zilola Khabibullayevna.“Analysis of Tipological Classification of Languages.”“Barqaror rivojlanish kontekstida xorijiy tillarni o‘qitish:ilog‘or tajribalar,muammolar va imkonoyatlar” (2):152-157.

TILSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AUTENTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Shahlo Akmalovna Alimbayeva
Katta o‘qituvchi, Toshkent davlat texnik universiteti, O‘zbekistan

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallardan foydalanishning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Autentik materiallar tilni o‘rganishda real hayotiy vaziyatlar asosida o‘rgatuvchi, o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutq malakasini shakllantiruvchi samarali vosita sifatida baholangan. Shuningdek, maqolada bu materiallarning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshirishi, madaniy kontekstni tushunishga yordam berishi va kommunikativ kompetensiyani mustahkamlashi ta’kidlangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, autentik materiallar yordamida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘rganuvchilarning lingvistik va madaniy bilimlarini birgalikda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Til o‘rgatish, interfaol metodlar, real muloqot, lingvistik kompetensiya, madaniyatlararo kommunikatsiya, ta’lim texnologiyalari.*

Annotation: This article discusses the theoretical foundations and practical importance of using authentic materials in developing linguistic competence. Authentic materials are considered an effective tool for teaching language learning based on real-life situations and forming oral and written speech skills in students. The article also emphasizes that these materials increase motivation for language learning, help to understand the cultural context, and strengthen communicative competence. According to the results of the study, the educational process organized using authentic materials serves to jointly develop the linguistic and cultural knowledge of learners.

Keywords: *Language teaching, interactive methods, real dialogue, linguistic competence, intercultural communication, educational technologies.*

Абстракт: В статье рассматриваются теоретические основы и практическое значение использования аутентичных материалов в развитии языковой компетенции. Аутентичные материалы считаются эффективным инструментом обучения языку на основе реальных жизненных ситуаций и развития навыков устного и письменного общения у учащихся. В статье также подчеркивается, что эти материалы повышают мотивацию к изучению языка, помогают понять культурный контекст и укрепляют коммуникативные компетенции. По результатам исследования, образовательный процесс, организованный с использованием аутентичных материалов, способствует совместному развитию языковых и культурных знаний обучающихся.

Ключевые слова: *Обучение языку, интерактивные методы, реальное общение, языковая компетенция, межкультурная коммуникация, образовательные технологии.*

Kirish qismi: Bugungi globallashuv jarayonida chet tillarini o‘qitish sohasida yangi, samarali yondashuvlar va innovatsion metodlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, talabalar tilshunoslik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda autentik materiallardan foydalanish ta’lim jarayonining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Autentik materiallar - bu ona tilida so‘zlashuvchilar tomonidan real kommunikativ vaziyatlar uchun yaratilgan materiallar bo‘lib, ularning til o‘rganuvchilar uchun o‘ziga xos didaktik imkoniyatlari mavjud.

Autentik materiallar o‘z tarkibi, mazmuni va kontekstual yondashuvi bilan o‘quvchilarni real til muhiti bilan tanishtiradi, ularni tabiiy muloqotga tayyorlaydi, shuningdek, til elementlarini funksional kontekstda o‘rganish imkonini beradi. Bu esa nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniy, kommunikativ, pragmatik va stilistik ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Autentik materiallarga jurnal va gazeta maqolalari, video va audio yozuvlar, reklama matnlari, bloglar, podkastlar, intervyular, ijtimoiy tarmoq postlari, qo‘shiqlar, filmlar va rasmiy hujjatlar kiradi.

Autentik matnlar yordamida o‘rganuvchilar tilning hozirgi kundagi real qo‘llanilishi, uslubiy xususiyatlari va madaniy konnotatsiyalarini tushunishga o‘rganadilar. Tilshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda bu holat ayniqsa muhim, chunki til faqat grammatik qoidalar majmuasi emas, balki ijtimoiy-madaniy kontekstda yashovchi murakkab hodisadir. O‘qituvchilar tomonidan to‘g‘ri tanlangan autentik matnlar talabalarni real nutqiy faoliyatga jalb etib, ularni muloqotga tayyorlaydi va mustaqil fikrlashga undaydi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, autentik materiallar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi, tilga qiziqishni kuchaytiradi hamda o‘rganilayotgan tilning ijtimoiy va madaniy jihatlarini o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq faolligi ortadi, ularning til bilan ishlash qobiliyati, ya’ni tilshunoslik kompetensiyasi yanada mustahkamlanadi.

Shuningdek, autentik materiallar asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar orqali talabalarda so‘z boyligi, frazeologik birliklar, stilistik vositalar va nutq aktlarining ma’nodagi nozik farqlari haqida bilimlar shakllanadi. Bu esa ularning tilni chuqur

anglab yetishlariga, konnotativ va denotativ ma’nolarni tahlil qilishga, kommunikativ strategiyalarni qo‘llashga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslik kompetensiyasini shakllantirishda autentik materiallardan foydalanish ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi. Bu yondashuv o‘quv jarayonini hayotiy, mazmunli va kontekstual qiladi. Autentik vositalar orqali o‘rganuvchilarda til sezgirligi, nutq moslashuvchanligi va madaniyatlararo muloqotga tayyorgarlik darajasi rivojlanadi. Shu bois, bu metodologiyani o‘quv dasturlariga tizimli va izchil tarzda integratsiya qilish zamonaviy til ta’limining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Asosiy qism: Bugungi globallashuv jarayonida chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgani sababli, ta’lim tizimida tilshunoslik kompetensiyasini shakllantirish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Tilshunoslik kompetensiyasi deganda nafaqat grammatik bilimlar, balki fonetik, leksik, sintaktik, stilistik bilimlar majmuasi, ularni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalari tushuniladi. Bu kompetensiyani shakllantirishda esa zamonaviy metodlar, xususan, autentik materiallardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Autentik materiallar - bu real hayotda kommunikatsiya uchun mo‘ljallangan, o‘quv jarayoni uchun maxsus yaratilmagan matnlar, audio, video va boshqa turdagi axborot vositalaridir. Bunga gazeta va jurnal maqolalari, radio eshittirishlari, intervyular, film lavhalari, internetdagi forumlar, reklama matnlari, bloglar va ijtimoiy tarmoqlardagi postlar misol bo‘la oladi.

Bunday materiallar quyidagi afzalliklari bilan ajralib turadi: o‘quvchilarni real til muhitiga yaqinlashtiradi; madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi; so‘z boyligini tabiiy kontekstda o‘rgatadi; muloqotga asoslangan ko‘nikmalarni rivojlantiradi; motivatsiyani oshiradi, chunki o‘rganuvchilar tilni "real hayotda qanday qo‘llanilishi"ni ko‘rishadi.

Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, autentik materiallardan foydalanish o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi, ularning fikrlash doirasini kengaytiradi va mustaqil o‘rganishga undaydi. Shuningdek, bu yondashuv orqali til o‘rganish faqat grammatikaga asoslangan formal jarayon bo‘lishdan chiqib, yanada tabiiy, hayotiy va mazmunli faoliyatga aylanadi.

Autentik materiallardan foydalanish tilshunoslik kompetensiyasini shakllantirishda nafaqat ta’lim sifati, balki o‘quvchilarning kommunikativ tayyorgarligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv orqali o‘quvchilar tilni real kontekstda o‘rganadi, madaniy tafovutlarni anglaydi va o‘z fikrlarini samarali ifoda etish malakalarini rivojlantiradi. Bu esa zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri — hayotiy va kasbiy faoliyatda qo‘llaniladigan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, autentik materiallardan foydalanish tilshunoslik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda zamonaviy va samarali vosita sifatida katta ahamiyatga ega. Bunday materiallar o‘quvchilarga tilni sun’iy muhitda emas, balki haqiqiy hayotiy kontekstda o‘rganish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida, nafaqat grammatik bilimlarni chuqurlashtiradi, balki so‘z boyligini

kengaytiradi, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi va real muloqotga tayyorlaydi.

- Miyake, A., & Friedman, N. P. (1998). *Individual differences in working memory: Implications for language processing.* Psychological Review, 105(1), 1-33.
- Paivio, A. (1986). *Mental representations: A dual coding approach.* Oxford University Press.
- Roediger, H. L., & McDermott, K. B. (1995). *Creating false memories: Remembering words not presented in lists.* Journal of Experimental Psychology: Learning, Memory, and Cognition, 21(4), 803-814.

- Smith, S. M. (1985). *Environmental context-dependent memory.* In Advances in Learning and Motivation (Vol. 9, pp. 173-206). Academic Press.
- Tulving, E. (1972). *Episodic and semantic memory.* In Organization of Memory (pp. 381-402). Academic Press.
- Tulving, E. (1985). *Memory and consciousness.* Canadian Psychology, 26(1), 1-12.
- Ullman, M. T. (2001). *The neural basis of lexicon and grammar in first and second language acquisition.* Trends in Cognitive Sciences, 5(12), 512-519.
- Von Restorff, H. (1933). *Über die Wirkung von Bereichsbildungen im Spurenfeld.* Psychologische Forschung, 18, 299-342.

TALABALARDA LINGVISTIK KONPITENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI TIL SATXLARINI O‘ZLASHTIRISH METODIKASI

Doniyor Dovronovich Ergashev
Ingliz tili o‘qituvchisi, Turizm fakulteti,
Alfraganus universiteti, Uzbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali til sathlarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirish metodikasi yoritilgan. Til o‘rgatishda fonetik, leksik, grammatik, stilistik va pragmatik sathlarni chuqur o‘zlashtirishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, lingvistik kompetensiyaning tarkibiy qismlari – fonologik, morfologik, sintaktik, semantik va stilistik bilimlarni shakllantirish metodlari, ularning tilni faol o‘rganishga qo‘shadigan hissasi amaliy misollar orqali ko‘rsatilgan. Maqola til o‘qituvchilari va metodistlar uchun foydali nazariy hamda amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *til sathlari, fonetik sath, grammatik sath, leksik kompetensiya, stilistik kompetensiya, pragmatik yondashuv, til o‘rgatish metodikasi, kommunikativ yondashuv.*

Абстракт: В статье рассматривается методика постепенного освоения уровней языка путем развития языковых компетенций у учащихся. Значимость коммуникативного подхода в обучении языку анализируется на основе углубленного освоения фонетического, лексического, грамматического, стилистического и прагматического уровней. Также на практических примерах демонстрируются компоненты языковой компетенции — фонологические, морфологические, синтаксические, семантические и стилистические знания — и их вклад в активное изучение языка. Статья содержит полезные теоретические и практические рекомендации для преподавателей иностранных языков и методистов.

Ключевые слова: *уровни языка, фонетический уровень, грамматический уровень, лексическая компетенция, стилистическая компетенция, прагматический подход, методика обучения языку, коммуникативный подход.*

Abstract: This article discusses the methodology for gradually mastering language levels through the development of linguistic competencies in students. The importance of the communicative approach in the in-depth mastery of phonetic, lexical, grammatical, stylistic and pragmatic levels in language teaching is analyzed. Also, the methods of forming the components of linguistic competence - phonological, morphological, syntactic, semantic and stylistic knowledge, and their contribution to active language learning are shown through practical examples. The article contains useful theoretical and practical recommendations for language teachers and methodologists.

Keywords: *language levels, phonetic level, grammatical level, lexical competence, stylistic competence, pragmatic approach, language teaching methodology, communicative approach.*

Kirish qismi: Zamonaviy til o‘rgatish jarayonida talabalar uchun nafaqat tilning nazariy asoslarini o‘zlashtirish, balki uni amaliy nuqtai nazardan mukammal o‘zlashtirish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Til bilishning samarali shakllaridan biri bu - lingvistik kompetensiyani chuqur shakllantirish orqali til sathlarini (fonetik, leksik, grammatik, stilistik va pragmatik) tizimli ravishda egallashdir. Chunki lingvistik kompetensiya shaxsning til tizimini anglash, uning bo‘g‘inlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish va mazkur bilimlarni amaliy nutq faoliyatida to‘g‘ri qo‘llash salohiyatidir.

Bugungi globallashuv sharoitida chet va ona tillarini o‘qitish metodikasini yangicha pedagogik texnologiyalar asosida qayta ko‘rib chiqish, ularni samarali va interaktiv uslublar orqali talabalarga yetkazish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda tilning har bir sathi o‘ziga xos metodik yondashuvlarni talab qiladi. Masalan, fonetik sathda talaffuz va ohangni to‘g‘ri shakllantirish, grammatik sathda morfologik va sintaktik birliklardan to‘g‘ri foydalanish, leksik sathda boy so‘z boyligini hosil qilish, stilistik sathda esa til vositalarini kontekstga muvofiq tanlash kompetensiyalarini rivojlantirish zarur bo‘ladi [5].

Shu jihatdan qaralganda, lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish orqali til sathlarini o‘zlashtirish metodikasi bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada aynan talabalarda lingvistik kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish, til sathlariga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va ularning amaliy qo‘llanilishi masalalari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, til o‘rgatish jarayonida innovatsion usullar, interaktiv metodlar, integratsiyalashgan yondashuvlar va kommunikativ texnologiyalarning tutgan o‘rni ham alohida yoritiladi [6].

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi - talabalar til o‘rganish jarayonida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish orqali fonetik, leksik, grammatik, stilistik va pragmatik sathlarni samarali o‘zlashtirish metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyotda qo‘llashning optimal yo‘llarini aniqlashdan iborat.

Til o‘rgatish jarayonida lingvistik kompetensiyani rivojlantirish nazariy jihatdan tilshunoslik, psixolingvistika, pedagogika va metodika fanlarining tutashgan nuqtasida yotadi. Bu kompetensiya til strukturasi haqidagi bilimlar

majmui, uni anglash, qo‘llash va sharoitga moslashtirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Noam Chomsky tomonidan ilgari surilgan "kompetensiya va performans" konsepsiyasiga ko‘ra, til bilimini egallash — bu faqat qoidalarni bilish emas, balki ularni nutq jarayonida to‘g‘ri va samarali qo‘llay olishdir.

Til sathlarini o‘rgatishda esa har bir sath o‘ziga xos nazariy va amaliy yondashuvni talab qiladi:

Fonetik sath – talaffuz, intonatsiya, urg‘u va fonologik birliklar tizimi haqida bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Fonetik kompetensiyani rivojlantirish uchun audio-dasturlar, talaffuz mashqlari va fonetik transkripsiyadan foydalaniladi.

Leksik sath – so‘z boyligini shakllantirish, sinonim, antonim, omonim kabi leksik birliklar bilan ishlash orqali boyitiladi. Leksik kompetensiya til muhitida faol muloqot orqali mustahkamlanadi.

Grammatik sath – morfologik va sintaktik birliklarni to‘g‘ri tushunish va ularni amaliyotda ishlata olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu sath uchun tahlil mashqlari, strukturaviy sxemalar, interaktiv testlar muhimdir.

Stilistik sath – matn yoki nutq kontekstiga qarab til vositalarini to‘g‘ri tanlashni o‘rgatadi. Stilistik kompetensiya matn tahlili, adabiy asarlar ustida ishlash orqali rivojlanadi.

Pragmatik sath – til vositalarini kommunikativ vaziyatga mos holda ishlatish qobiliyatini anglatadi. Bu sath muloqot stsenariylari, rol o‘yinlari va ijtimoiy vaziyatlarda ishlatiladigan til shakllari orqali rivojlantiriladi [3].

Shuningdek, til o‘rgatishning zamonaviy metodologiyasi CEFR (Common European Framework of Reference for Languages – Yevropa til kompetensiyalari umumiy tizimi) tamoyillariga tayanib, til kompetensiyasini A1 dan C2 darajasigacha bosqichma-bosqich shakllantirishni nazarda tutadi. Bu tizimda tilni egallashda to‘rt asosiy ko‘nikma – tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish – bir butun yondashuv orqali rivojlantiriladi.

Talabalarda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish — bu nafaqat tilga oid nazariy bilimlarni berish, balki ularni turli til sathlarida amaliy qo‘llashga o‘rgatish jarayonidir. Mazkur maqolada yoritilganidek, fonetik, leksik, grammatik, stilistik va pragmatik sathlar bo‘yicha kompetensiyalarni rivojlantirish, talabaning tilni ongli, to‘g‘ri va mazmunli ishlatish qobiliyatini oshiradi. Bu esa til o‘rgatish jarayonining sifat jihatdan yuqori darajaga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan metodika til o‘rganishda mustaqillik, ijodkorlik va muloqotga tayyorlikni ta’minlaydi. Shuningdek, interaktiv metodlar, kommunikativ mashqlar va integratsiyalashgan yondashuvlar orqali talabaning til muhitida erkin harakat qilishi uchun zarur zamin yaratiladi.

Natijada, til o‘rgatish jarayonida lingvistik kompetensiyalarga asoslangan yondashuv, zamonaviy talab va ehtiyojlarga mos, samarali, tizimli va natijador metodika sifatida o‘z o‘rnini topadi. Ushbu yondashuv asosida yaratilgan tavsiyalar va amaliy usullar, o‘qituvchilar hamda metodistlar uchun qo‘llanma vazifasini o‘tab, til o‘rgatish sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Chomsky N. (1965). *Aspects of the Theory of Syntax*. Cambridge, MA: MIT Press.

2. Hymes, D. (1972). *On Communicative Competence*. In J.B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics*. Penguin Books.
3. CEFR – *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment*. (2020). Council of Europe.
4. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
5. Nazarova G. (2020). Til o‘rgatishda lingvistik kompetensiyani shakllantirishning dolzarb masalalari. *Filologiya fanlari*, №4, 45-50.
6. Yoqubova N.M. (2019). Chet tillarini o‘qitishda kommunikativ yondashuv. *O‘zbek tilshunosligi*, №2, 36-41.
7. Qodirov B.B. (2021). Lingvistik kompetensiya va til o‘rgatish metodikasi: nazariy va amaliy yondashuvlar. *Pedagogik mahorat*, №1, 27-33.

KOMMUNIKATIV USLUB STRATEGIYALARINI QO‘LLASH TEXNOLOGIYASI VA MASHQLAR TIZIMI

Sultanova Dilorom Baxadirovna
Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar Universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada kommunikativ uslub strategiyalarining mazmuni, ularning til o‘rganish va o‘qitish jarayonidagi o‘rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, bu strategiyalarni amaliyotda qo‘llashga xizmat qiluvchi samarali texnologiyalar va mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar yoritilib, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar berilgan. Maqola pedagoglar, til o‘rgatuvchilar va tilshunos tadqiqotchilar uchun foydali nazariy va amaliy material sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘qitish texnologiyasi, mashqlar tizimi, til o‘rgatish, metodika, nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya, didaktik yondashuv.*

Abstract: This article analyzes the content of communicative style strategies, their role and significance in the process of language learning and teaching. Also, a system of effective technologies and exercises has been developed to help apply these strategies in practice. The author highlights methodological approaches aimed at the formation of communicative competence and gives recommendations to develop students' oral and written speech. The article serves as a useful theoretical and practical material for educators, language teachers and linguistic researchers.

Keywords: *teaching technology, exercise system, language teaching, methodology, speech culture, communicative competence, didactic approach.*

Абстракт: В статье анализируется содержание стратегий коммуникативного стиля, их роль и значение в процессе изучения и преподавания языка. Также разработана система эффективных технологий и упражнений, помогающих реализовать эти стратегии на практике. Автор

выделяет методические подходы, направленные на формирование коммуникативной компетентности, и дает рекомендации, способствующие развитию устной и письменной речи учащихся. Статья представляет собой полезный теоретический и практический материал для педагогов, преподавателей иностранных языков и исследователей-лингвистов.

Ключевые слова: *технология обучения, система упражнений, обучение языку, методика, культура речи, коммуникативная компетентность, дидактический подход.*

Kirish qismi: Bugungi globallashuv va axborot jamiyati sharoitida insonlar o’rtasidagi samarali muloqotga bo’lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu jarayonda til vositasida amalga oshiriladigan kommunikativ faoliyat muhim o’rin tutadi. Xususan, har bir shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, kasbiy faoliyati va shaxsiy munosabatlari uning kommunikativ kompetentsiyasi darajasiga bog’liqdir. Shu jihatdan, kommunikativ uslub strategiyalarini o’rgatish va ularni amaliyotda samarali qo’llash masalalari lingvistika va pedagogika sohalarida dolzarb mavzulardan biriga aylangan.

Kommunikativ uslub strategiyalari – bu til vositalari orqali maqsadga muvofiq va ta’sirli muloqotni yo’lga qo’yish uchun tanlanadigan maqsadli yondashuvlar majmuasidir. Ularning samarali qo’llanilishi shaxsning nutqiy madaniyati, ifodalilik, ta’sirchanlik va munosabat o’rnatish qobiliyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga, bu kabi strategiyalarni shakllantirish uchun maxsus mashqlar tizimi va metodik yondashuvlar talab etiladi [3].

Ushbu maqolada kommunikativ uslub strategiyalarini qo’llash texnologiyalari hamda ularni mustahkamlashga xizmat qiluvchi mashqlar tizimi tahlil qilinadi. Bunda nazariy asoslar, metodik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar orqali til o’rgatish jarayonida kommunikativ samaradorlikka erishish imkoniyatlari ko’rib chiqiladi.

Asosiy qism: Zamonaviy ta’lim jarayonida tilni faqat bilim sifatida emas, balki vosita sifatida egallash talab etiladi. Til orqali fikrni aniq, lo‘nda, maqsadga yo‘naltirilgan tarzda yetkazish, o‘zaro muloqotda strategik yondashuvlarni qo‘llash - bu kommunikativ uslub strategiyalarining asosini tashkil etadi. Bunday strategiyalar til egallovchiga nutqiy vaziyatga mos ravishda uslubiy tanlov qilish, maqsadli auditoriyaga mos ohang, leksik va grammatik birliklarni tanlash imkonini beradi.

Zamonaviy tilshunoslikda kommunikativ yondashuv markaziy o‘ringa ega bo‘lib, bu tamoyil tilni o‘rganish jarayonida kommunikativ maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni asosiy vosita sifatida belgilaydi. Kommunikativ uslub esa, tilshunoslikdagi uslubshunoslik yo‘nalishida nutqning vaziyatga, auditoriyaga, maqsadga mos ravishda tashkil topgan shaklidir. Har bir muloqot ishtirokchisi o‘z fikrini ifodalashda ma’lum strategiyalarni ongli ravishda tanlaydi yoki tabiiy tarzda qo‘llaydi.

Ushbu strategiyalar til o‘rganuvchilarda shakllanmaguncha, ular nutqiy vaziyatlarda noaniqlik, izchillik yetishmasligi yoki fikrni to‘liq ifoda etmaslik kabi

muammolarga duch keladilar. Shu sababli, kommunikativ strategiyalarni tizimli o‘rgatish zarurdir.

Kommunikativ strategiyalar turli mezonlarga ko‘ra tasniflanadi. Tadqiqotchi G. Brown va G. Yule fikricha [5], bu strategiyalar ikki asosiy guruhga bo‘linadi:

Nutqiy (lingvistik) strategiyalar – leksik va grammatik vositalarni tanlash, gap qurilishi, sinonimlar, so‘z tartibini moslashtirish.

Ijtimoiy-pragmatik strategiyalar – nutqiy vaziyat, suhbatdoshlik darajasi, madaniy muhitni hisobga olish orqali muloqot strategiyasini aniqlash.

Til o‘rgatish jarayonida kommunikativ strategiyalarni shakllantirish texnologik jihatdan izchil yondashuvni talab etadi. Quyidagi bosqichlar bu texnologiyaning asosini tashkil etadi.

Diagnostik bosqich: O‘quvchilarning mavjud til kompetensiyasi va kommunikativ faoliyatini baholash.

Rejalashtirish bosqichi: Maqsadli strategiyalarni aniqlash va ularga mos topshiriq/mashq tizimini ishlab chiqish.

Trening bosqichi: Interfaol usullar orqali mashqlar asosida strategik nutq faoliyatini shakllantirish.

Refleksiya bosqichi: O‘quvchilarning o‘z kommunikativ harakatlarini baholashi va takomillashtirish yo‘llarini aniqlashi.

Texnologik yondashuv doirasida muammoli vaziyatlar, rol o‘yinlari, interaktiv savol-javob, klasterlar va nutqiy stsenariylar asosida mashg‘ulotlar tashkil qilinadi. Mashqlar tizimi kommunikativ strategiyalarni amaliyotga tadbiq etish vositasidir. Mashqlar mazmuni, shakli va murakkabligi jihatidan bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Quyidagi mashq turlariga alohida e’tibor qaratiladi: Imitatsion mashqlar o‘qituvchi bergan namunaviy ifodalarni qaytarish, aynan takrorlash orqali talaffuz, sintaksis va uslubiy birliklarni mustahkamlash. Transformatsion mashqlar gap tarkibini o‘zgartirish, boshqa uslubda ifoda qilish (rasmiy-uslubiy, norasmiy-uslubiy) [4].

Interaktiv mashqlar suhbat, munozara, bahs, savol-javob asosida real nutqiy vaziyatni yaratish. Rolga asoslangan mashqlar (rol o‘yinlari) hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali tilning amaliy qo‘llanishiga imkon yaratish. Yaratuvchan mashqlar –mustaqil ravishda og‘zaki yoki yozma shaklda mazmunli nutq tuzish.

Masalan:

“Siz do‘stingizni ishontirishga harakat qilyapsiz: tanlangan uslub qanday? Qanday strategiyalar qo‘llaysiz?”

“Telefon orqali rasmiy murojaat qiling: til vositalarini qanday tanlaysiz?”

Bugungi kunda til o‘qitish jarayonida faqat grammatik bilimlarni emas, balki kommunikativ kompetensiyani shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada kommunikativ uslub strategiyalarini o‘rgatish va ularni amaliyotda qo‘llash texnologiyalarini ishlab chiqish ta’limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [8].

Maqolada o‘rganilgan nazariy va amaliy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Kommunikativ strategiyalar o‘quvchilarning nutqiy faolligini kuchaytiradi, fikrni aniq, mantiqiy va auditoriyaga mos ravishda ifoda qilish imkonini beradi.

2. Uslubiy yondashuv va strategik fikrlash nutqning turli shakl va vaziyatlarda samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi.

3. Strategiyalarni o‘rgatish texnologiyasi bosqichma-bosqich, interfaol metodlar asosida olib borilganda eng yuqori natijalarni beradi.

4. Mashqlar tizimi orqali o‘quvchilar nafaqat til vositalarini egallaydi, balki real hayotiy vaziyatlarda ularni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

5. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va kommunikativ madaniyat shakllanadi.

Shu bois, til o‘rgatish jarayonida kommunikativ uslub strategiyalarini puxta o‘rganish, ularni o‘rgatish texnologiyasini takomillashtirish hamda zamonaviy mashqlar tizimidan samarali foydalanish dolzarb metodik yo‘nalishlardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Abdujabborova K. METHODOLOGY OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING TO JOURNALISM STUDENTS: EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES //Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2025. – T. 12. – №. 02. – C. 42-46.
2. Abdujabborova, K. (2025). O‘ZBEKISTON OLIY TALIM MUASSASALARIDA JURNALISTIKA YO ‘NALISHIDAGI TALABALARIGA INGLIZ TILI O ‘QITISH AMALIYOTI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, *4*(4), 97-99.
3. Bobojonova L.M. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – 248 b.
4. Xodjayeva M.M. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda lingvistik va psixolingvistik yondashuvlar // Filologiya masalalari. – 2020. – №4. – B. 35–40.
5. Brown G., Yule G. Teaching the Spoken Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 256 p.
6. Nunan D. Language Teaching Methodology: A Textbook for Teachers. – New York: Prentice Hall, 1991. – 210 p.
7. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 280 p.
8. Sayfullayeva N.M. Til o‘rgatishda kommunikativ yondashuv: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 144 b.
9. Dilorom Baxadirovna Sultanova, DIDACTIC FEATURES OF THE PROCESS OF MASTERING A COMMUNICATIVE STYLE. (2025). Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations, 4(2), 199-202. https://doi.org/10.55640/

TIL VA JAMIYATNING O‘ZARO TA’SIRI

Nozima Xodiyeva,
Eronshunoslik va afg‘onshunoslik
oliy maktabining katta o‘qituvchisi, TDSHU

Annotatsiya: Mazkur maqolada til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir masalasi yoritilgan. Til inson fikri, hissiyotlari va bilimlarini ifodalovchi asosiy vosita sifatida nafaqat shaxslararo aloqani, balki jamiyatning madaniy, tarixiy va ijtimoiy tuzilishini shakllantirishdagi rolini ham bajarishi ta’kidlangan. Har bir

jamiyat o‘ziga xos tilga ega bo‘lib, u orqali qadriyatlar, urf-odatlar va an’analar avloddan-avlodga o‘tadi. Shuningdek, maqolada sotsiolingvistika fani haqida ma’lumot berilib, uning til va jamiyat munosabatlarini o‘rganishdagi o‘rni tushuntirilgan. Sotsiolingvistika insonlarning tilga bo‘lgan munosabatini ularning yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei va bilim darajasiga qarab tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: *Tilning ichki funksiyasi, lingvomadaniyatshunoslik, pragmalingvistika, U.Labov faol sotsiolingvistik tadqiqotlari, Edward Sapir tadqiqot ishlari.*

Til insonning fikrini, his-tuyg‘ularini, niyatlarini va bilimlarini ifodalashda eng asosiy vosita hisoblanadi. U nafaqat shaxslar o‘rtasidagi aloqa vositasi, balki jamiyatning ijtimoiy, madaniy va tarixiy tuzilishini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish, tilning jamiyatdagi rolini tushunish uchun juda muhimdir. Til jamiyatning asosiy aloqa vositasi bo‘lib, odamlar o‘rtasida ma'lumot almashinuvi, fikr va his-tuyg‘ularni ifodalashni ta'minlaydi. Har bir jamiyat o‘ziga xos tilga ega bo‘lib, bu til uning madaniyatini, tarixini va qadriyatlarini aks ettiradi. Til orqali jamiyatda yasalgan qoidalar, urf-odatlar va boshqa madaniy elementlar o‘rganiladi va avloddan-avlodga uzatiladi.

Bugungi kunda tilning jamiyat hayotidagi o‘rni, uning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy funksiya(vazifa)lari, ijtimoiy omillarning tilga bo‘lgan ta‘sir mexanizmi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadigan alohida tilshunosliksohasi shakllangan bo‘lib, bu tilshunoslik sohasi sotsiolingvistika deb nomlanadi. Sof lingvistika lisoniy belgilarni, chunonchi, tovush va uning yozma ifodasini, uning boshqa belgilar bilan o‘zaro munosabatini, vaqt va zamonda o‘zgarishini va hokazolarni tahlil qilish bilan shug‘ullansa, sotsiolingvistika insonlar mazkur lisoniy belgilarni ularning yoshi, jinsi, ijtimoiy holati, bilimi va madaniyatlilik darajasiga ko‘ra qanday qo‘llashlarini, ya’ni ijtimoiy muhitning ularning nutqiy muomalasiga qanday ta‘sir qilishini o‘rganadi. Bu fan butun tilga tegishli bo‘lgan ijtimoiy jarayonlarni, til va jamiyat munosabatlarini, nutq so‘zlovchisiga, tilning kelib chiqishiga, uning umumiy xususiyatlariga munosabatlarni, turli tillarning individual variantliligiga va mikrojarayonlar (shaxslararo muloqot, kichik guruhlar muloqoti)ni, u yoki bu jamiyatdagi insonlarning tildan qanday foydalanishlarini tadqiq etadi. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini, uning ijtimoiy funksiyalarini, shuningdek, ijtimoiy omillarning tilga ta‘sirini o‘rganadigan fandir.

Tilni to‘kis tadqiq etish uchun tilshunoslik doirasidagina ish ko‘rishning kamligi bugun shu fan mutaxassislarining hech biriga sir emas. Shu bois, zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda boshqa fanlar yutuqlaridan ham keng foydalanilmoqda. Ana shunday urinishlarning samarasi o‘laroq, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, pragmalingvistika kabi sohalar rivoj topmoqda va bu sohalar tilga, an’anaviy strukturalizmdan farqli ravishda doimiy harakatdagi, o‘sish-o‘zgarishdagi hodisa sifatida yondashayotgani bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sotsiolingvistika ham jamiyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada paydo bo‘lgan soha sifatida tilning asoslarini jamiyatdan, jamiyatning asoslarini tildan qidiradi, ijtimoiy-siyosiy

omillarning tilga ta’siri va yana boshqa masalalarni tekshiradi. Tadqiqotlarda sotsiolingvistikaning rasman AQSHda shakllangani ko‘p aytilsa ham uning markaziy masalasi bo‘lgan til va jamiyatning o‘zaro ta’siri, tilning jamiyatda tutgan o‘rni, milliy tillar va davlat tili, til siyosatiga doir qarashlar hind, yapon, ingliz, nemis va chex tilshunosliklarida sotsiolingvistika nomi ostida bo‘lmasada, o‘rganilgan edi. Amerika tilshunosi U.Labov faol sotsiolingvistik tadqiqotlar ko‘p tilli Hindistonda hindiyni yagona davlat tiliga aylantirish g‘oyasi bilan bog‘liq vaqtlardayoq boshlanganini qayd etadi. Quyida tilning madaniyat, jamiyat, ijtimoiy strukturalar bilan bog’liqligini ko’rib chiqamiz:

Tilning jamiyatdagi eng muhim funksiyalaridan biri madaniyatni saqlash va rivojlantirishdir. Til, shuningdek, jamiyatning urf-odatlari, qadriyatlari va dunyoqarashini ifodalovchi vosita hisoblanadi. Madaniyat til orqali shakllanib, kelajak avlodlarga uzatiladi. Masalan, xalq dostonlari, maqollar, naqqoshlik va boshqa adabiy meroslar til orqali jamiyatga o‘rgatiladi va jamiyat o‘zining madaniy merosini til orqali himoya qiladi.

Jamiyatda tilning ijtimoiy rolini o‘rganish, uning jamiyatdagi stratifikatsiya va tengsizlikni qanday aks ettirishini tushunish uchun juda muhimdir. Jamiyatdagi har bir ijtimoiy guruh o‘ziga xos til yoki tilning ayrim xususiyatlaridan foydalanishi mumkin. Masalan, yuqori ijtimoiy qatlamdagi odamlar o‘zlarining nutqida an'anaviy yoki ilg‘or uslublarni qo‘llashadi, past qatlamdagi odamlar esa o‘z tilini sodda va qisqa tutishga moyil bo‘lishi mumkin.

- Til, shuningdek, jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarga ta'sir ko‘rsatadi. Masalan, yangi texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va globalizatsiya tilning rivojlanishiga olib keladi. Yangi so‘zlar, iboralar va tushunchalar jamiyatda o‘zgarishlar va yangi ehtiyojlarga javob berish uchun tilga kirib keladi. Shu bilan birga, til o‘zgarishlari jamiyatning madaniy evolyutsiyasini ham aks ettiradi.

Til milliy identitetning ajralmas qismidir. Millatlar o‘zining tilida o‘z tarixini, qadriyatlarini va madaniyatini saqlaydi. Tilning milliy shakllanishi va rivojlanishi jamiyatdagi o‘zlikni saqlash va mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, til millatlarni birlashtiruvchi vosita bo‘lib, uning o‘ziga xosligini va boshqalardan ajralib turishini ta'minlaydi. Tilning jamiyatdagi ahamiyatini anglashda uning ta'lim tizimidagi roli ham alohida ahamiyatga ega. Til o‘qitish va o‘rganish orqali yosh avlodni jamiyatda faol ishtirok etishga, o‘z fikrini ifodalashga va boshqalar bilan samarali muloqot qilishga o‘rgatadi. Ta'lim jarayonida til, nafaqat bilim uzatish vositasi, balki ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni yosh avlodga etkazish vositasi sifatida ham ishlatiladi. Ferdinand de Saussure tilni ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilgan va uni strukturalizm nuqtai nazaridan o‘rganishga asos solgan. U tilni va uning tarkibiy qismlarini jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘lab ko‘rsatgan. Saussure tilni "sign" (belgi) sifatida ta'riflagan, bu esa jamiyatda semantik aloqalarni tashkil etadi. Amerikalik lingvist Edward Sapir til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga katta hissa qo‘shgan . U tilning jamiyat va uning madaniyati bilan chambarchas bog‘liqligini ta'kidlagan.

Til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o‘rganish insoniyatning ijtimoiy, madaniy va tarixiy rivojlanishini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Til nafaqat odamlar o‘rtasidagi aloqa vositasi, balki jamiyatning turli qatlamlari, qadriyatlari, urf-odatlari va madaniy merosini aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Tilning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati shundaki, u insonlarning fikrlash, hissiyot va tajriba almashish shakllarini belgilaydi. Jamiyatda tilning o‘zgarishi va rivojlanishi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yangi texnologiyalar, globalizatsiya, va ijtimoiy munosabatlardagi o‘zgarishlar tilning yangi shakllarini va so‘zlarini kiritishiga olib keladi. Shuningdek, tilning jamiyatdagi o‘zgarishlarga ta'siri bir tomondan, ijtimoiy stratifikatsiya, madaniy identitet va qadr-qimmatlarni saqlashda, boshqa tomondan, jamiyatni yagona va mustahkam bo‘lishiga yordam beradi. Tilning jamiyatga ta'siri, o‘z navbatida, har bir individning dunyoqarashi va ijtimoiy pozitsiyasiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Olimlar, jumladan, Saussure, Sapir, Whorf, Labov va Bourdieu kabi mutaxassislar til va jamiyatni o‘rganishda turli yondoshuvlarni ishlab chiqdilar. Ular tilning jamiyatdagi funksiyalari va uning ijtimoiy o‘zgarishlarga qanday ta'sir qilishini chuqur tahlil qilishgan.

Xulosa sifatida shuni atya olamizki, til nafaqat ijtimoiy aloqaning asosiy vositasi, balki jamiyatni shakllantiruvchi kuch sifatida xizmat qiladi. Tilning jamiyatdagi ahamiyatini tushunish, shuningdek, uning ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlardagi rolini tan olish, kelajakdagi tadqiqotlar va ijtimoiy siyosatni shakllantirish uchun zarurdir. Jamiyatda tilning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va uni saqlab qolish, uning madaniy merosini saqlash va kelajak avlodlarga etkazish uchun katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yorqinjon ODILOV, O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bo‘lim mudiri, filologiya fanlari doktori Til va jamiyaning o‘zaro munosabati. 2012 B.128
2. https:universalpublishings.com
3. To`rayeva Umida Egamberdiyevna Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, f.f.f.d. (PhD), dotsent, Til va jamiyatning o‘zaro munosabati doirasida bahs-munozaralar T. 2021 B. 210
4. “Qurilish va ta’lim ilmiy”jurnali http:/qurilishtalim.uz
5. http:qurilishtalim.uz

АНАЛИЗ ЮМОРИСТИЧЕСКОГО КОНТЕНТА НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ И ДИДАКТИЧЕСКИХ СТРАТЕГИЙ

Юсупова Лобар Хусановна
Старшая учительница английского языка,
Негосударственной организации высшего образования “Alfraganus University”

Аннотация: чтобы чтение настоящей юмористической литературы способствовало созданию образа студента о стране изучаемого языка, необходимо научить студента не только умению получать информацию на

уровне содержания, но и определять национально-культурную составляющую текста.

Ключевые слова: *юмористический контент, менталитет, этносемантика, культура, литература, информация.*

Читая юмористические содержание студент знакомится с различными аспектами общества и культуры изучаемого языка, понимает чужой менталитет, формирует образ страны, что способствует ее культурному просветлению. Чтение и изучение литературы подлинно юмористических, фрагментов, рассказов играет важную роль в практическом овладении языком, выступает средством информационно-образовательной и профессионально-ориентированной деятельности студента, средством самообразования, а также является видом рекреационной деятельности.

Исследования показывают, что у человека, свободно владеющего языком, сигнальное слово сопровождается "культурным ореолом", который в данном случае не может быть включен в значение текста как выражение культурного явления. Соответственно, через юмористические тексты целесообразно использовать изучаемый иностранный язык как два функциональных средства обучения коммуникативным и социокультурным компетенциям. Для этих целей можно использовать тексты любого жанра. Однако юмористические тексты являются наиболее важными, поскольку они сохраняют в себе этносемантический и дискурсивный уровни.

Первый уровень–семантический, на котором основными единицами анализа являются двоякие единицы языка-слово и фраза и грамматическая категория. На этом уровне значение сообщения понимается напрямую, и одной из причин непонимания на этом уровне является наличие межъязыкового вмешательства. Непонимание на семантическом уровне возникает из-за недостаточного точного знания значения реальных языковых единиц.

Второй уровень-этносемантический, и, по мнению авторов, "каждое слово языка-это капля, отражающая культуру людей, говорящих на этом языке. Понимание на этносемантическом уровне обеспечивается знанием всей системы социокультурных и экспрессивно-оценочных значений, а также всех категорий вертикального контекста, отражающего культурное происхождение данного языкового сообщества. Трудности на этом уровне понимания возникают, когда в восприятии письменного речевого сообщения передается целая система образных стереотипов, свойственных культуре самого читателя. Один и тот же факт можно понять по-разному на разных языках. Если для представителя узбекской культуры белый цвет-цвет чистоты и радости, то для индийского народа-цвет траура. Если для узбеков черная кошка-символ неудач и несчастий, то для англичан, наоборот, черная кошка приносит счастье и удачу. Комплекс фигур речи, тропы, отражающие филологический смысл данного народа, могут прервать процесс понимания, так как могут быть неверно истолкованы или неизвестны носителю языка другой культуры. Третий уровень понимания речевого сообщения-паралингвистический,

который затрагивает ряд проблем невербального общения, а именно кинезику и просемику, которые могут относиться только к устному речевому сообщению.

Четвертый, дискурсивный уровень понимания речевого сообщения предполагает анализ коммуникативной модели речи, характерной для конкретной национальности. Модели социокультурного условного речевого поведения могут настолько различаться, что их невежество или непонимание приводят к фундаментальным сбоям в межкультурном общении. "На дискурсивном уровне информация проходит через своего рода социокультурный фильтр, представляющий собой сложную национально-историческую и культурную ассоциацию.

"На дискурсивном уровне информация проходит через своего рода социокультурный фильтр, который представляет собой сложное сочетание национальных исторических и культурных особенностей поведения, обычаев, религий и табу. Таким образом, успех в понимании посланий устной и письменной речи на иностранном языке, в том числе юмористических, во многом зависит от того, насколько хорошо известны основные особенности языка изучаемой культуры, а также национальные традиции, система ценностей, обычаи, традиции, образ жизни и даже общепринятые суеверия. На семантическом уровне раскрывается только лексический фон языковых единиц. Этносемантический уровень предполагает понимание социокультурного происхождения языковых единиц. Различие лексического и социокультурного происхождения языковых единиц можно проиллюстрировать некоторыми примерами. Таким образом, лексический фон слова иностранец объясняет и раскрывает его непосредственное значение, т. е. человек из иностранной страны (человек из другой страны), в то время как лексический фон слова иностранец является иностранным (что-то уникальное для другой страны). Социокультурный фон вышеупомянутых слов на самом деле, как британцы, эти слова используются с негативной точки зрения, через них британский народ показывает свой патриотизм, то есть антипатию к иностранцам и показывает, что все иностранное.

В процессе изучения юмористического содержания, помимо работы с лексическим и социокультурным происхождением языковых единиц, важно также обратить внимание учащихся на культурную действительность, которая должна рассматриваться не только как особые объекты объективной действительности, но и как особые референты-элементы объективной действительности, т. е. объекты мысли, связанные с этим языковым выражением, также отражаются в сознании индивида. будет. Нет сомнений в том, что при определении культурного слоя текстов особое внимание следует уделять действительности, поскольку г. Д. По Томахин, утверждает что на самом деле сближение языка и культуры проявляется очень ярко: появление новых реалий в материальной и духовной жизни общества приводит к появлению в языке действительности и позволяет очень точно определить время появления новых реалий, поскольку словарь реагирует на все изменения

в общественной жизни. Необходимо разработать специальный алгоритм социокультурного анализа текста, предвидеть восприятие языкового знака и дать возможность его расшифровать. Это помогает учащимся более точно определить смысл изучаемого материала и выделить неизменяемую информацию. В итоге, алгоритм чтения юмористической литературы должен быть разработан в соответствии с моделью, с учетом специфических жанровых особенностей и в зависимости от типа текста (анекдот, юмористический рассказ). Юмористический текст имеет универсальные функции любого культурного текста, поэтому чтение юмористических текстов помогает лучше понять культуру и жизнь носителей английского языка. Культура (реальный мир) является наиболее подходящей средой для сохранения текста, особенно юмора, поскольку юмористические тексты часто наполнены культурной информацией. Все вышесказанное указывает на необходимость выйти за рамки лингвистического анализа текста, выдвинуть на первый план социокультурное содержание обучения чтению.

Таким образом, отделение традиционного обучения от обучения и переход к анализу реального социокультурного содержания должны обеспечить реализацию современной цели лингводидактики-изучения иностранного языка не как цели, а как средства изучения культуры.

Чтение настоящей юмористической литературы играет важную роль в практическом освоении изучаемого языка, выступает как средство информационно-образовательной и профессионально-ориентированной деятельности студента, средство самообразования, а также является видом рекреационной деятельности. Кроме того, чтение способствует созданию условий для активной познавательной деятельности, развивает чувство уважения к другой культуре, в то же время повышает чувство гордости и любви к своей культуре. Н. А. Саланович считает, что посредством исследования чтения учащиеся не только знакомятся с новым для них миром, но и начинают ориентироваться в нем, учатся определять общечеловеческие ценности и, наконец, получают духовное удовлетворение от процесса обучения.

При этом для того, чтобы чтение настоящей юмористической литературы способствовало формированию у студента имиджа страны изучаемого языка, необходимо научить студента не только умению получать информацию на уровне содержания, но и определять национально-культурную составляющую текста, то есть понимать социокультурное содержание и социокультурный смысл читаемого материала. акцент на усвоении культурно значимой информации при чтении юмористических текстов оправдан еще и тем, что студенты-филологи готовы воспринимать и понимать социокультурный смысл текста.

Использованная литература:

1.Астафурова, Т.Н. Английский для социологов [Текст]: учебно- методическое пособие Т.Н.Астафурова. Волгоград: Изд-во ВолГУ,2004.104 с.

2.Конецкая В. П. Лексико-семантические характеристики языковых реалий // Великобритания.

3. Лингвострановедческий словарь / Сост. А. Рум. М., 2000. С. 532–538.

4.Культуроведческое наполнение учебных программ и учебной литературы по иностранному языку // Записки по германистике и меж-культурной коммуникации. Меж-кафедральный сборник научных трудов. – Пятигорск: ПГЛУ, 2006. - С. 100-104.

5.Карасик, А.В. Лингвокультурные характеристики английского юмора [Текст]: автореф. дис. канд. филол. наук А.В.Карасик. Волгоград, 2001. 23с.

6.Саланович Н. А. Обучение чтению аутентичных текстов лингвострановедческого содержания//Иностр.языки в школе.1999.№1С.18-21

7.Materials on humorous content as a means of developing students'linguistic competence Barno Samatova, Lobar Yusupova news of uzmu journal 1 (1.2), 203- 207

8.Ingliz tilini o'qitishda grammatikaning o'rni Lobar Yusupova Xusanovna so‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 7 (1), 176-182

TIL TA’LIMIGA OID KOMMUNIKATIV, INTEGRAR VA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLAR

Fuzaylova Nargiza Abdusamatovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o’qituvchisi
nargizafuzaylova89@gmail.com

Abdusamatova Sevinch Abdumalik qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti, Ingliz tilshunosligi kafedrasi 1-kurs talabasi
svnchabd@gmail.com

Annotatsiya: Bugunga qadar til o‘qitish borasida ko‘pgina metodlar ustida tadqiqot va tajribalar olib borilgan. Bular orasida kommunikativ, integrar va kompetensiyaviy yondashuvlar o‘zining samaradorligi, tabiiyligi hamda ilmiy jihatdan yuqoriligi bilan ajralib turadi. Quyida ushbu yondashuvlar orqali leksik, grammatik, talaffuz tushunchalarini to‘g‘ri shakllantirish, o‘rganuvchilar ongida bilimlar sistemasini muayyan uslubda tartiblash kabi jarayonlar aks ettiriladi.

Kalit so’zlar: *kommunikativ yondashuv, integrar yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv*

Abstract: To date, numerous studies and experiments have been conducted on various methods of language teaching. Among these, communicative, integrative, and competency-based approaches stand out due to their effectiveness, naturalness, and strong scientific foundation. This paper explores how these approaches contribute to the proper formation of lexical, grammatical, and pronunciation skills, as well as the systematic organization of knowledge in learners’ minds through specific methodological techniques.

Keywords: *communicative approach, integrative approach, competency-based approach*

Аннотация: До сегодняшнего дня было проведено множество исследований и экспериментов по различным методам преподавания языков. Среди них коммуникативный, интегративный и компетентностный подходы выделяются своей эффективностью, естественностью и высокой научной

обоснованностью. В данной работе рассматриваются процессы правильного формирования лексических, грамматических и фонетических понятий, а также систематизации знаний учащихся с использованием этих подходов.

Ключевые слова: *коммуникативный подход, интегративный подход, компетентностный подход*

Kirish: “Yondashuv” atamasi adabiyotda ham keng ma’noda, ham tor ma’noda ishlatilishi mumkin. So’zning keng ma’nosidagi yondashuv haqida gapirganda, biz ushbu konseptsiyaning uchta tarkibiy qismini nazarda tutamiz: a) lingvistik tarkibiy qism-o’rganish uchun til vositalarini qanday tanlashimiz; b) didaktik komponent-biz qanday texnika va texnologiyalarni qo’llaymiz va o’quv materialini ishlab chiqishni qanday tashkil qilamiz; c) o’qitishning psixolingvistik asoslari-talabalar va o’qituvchilarning o’rni qanday, talabalar tomonidan til materialini idrok etishning o’ziga xos xususiyatlari qanday hisobga olingan.

Yondashuv – bu ta’lim jarayoniga bo‘lgan umumiy qarash, ya’ni tilni qanday o‘rgatish kerakligi haqidagi nazariy asos. Yondashuv o‘qitish jarayonida qanday tamoyillarga asoslanish kerakligini belgilaydi. Har bir yondashuv turli metodikalarga yo‘l ochishi mumkin

Kommunikativ yondashuv – bu usulning yetakchi yo’nalishi aloqa hisoblanadi. Talabalar o’zlarining til qobiliyatlari va ko’nikmalarini haqiqiy chet tillari bilan aloqa qilish sharoitlarida qo’llaydilar. Bunday imkoniyatlar tufayli o’quvchilar oldinroq olingan bilim va ko’nikmlardan foydalangan holda o’z fikrlarini chet tilida erkin bayon qilishlari mumkin. Kommunikativ yondashuv (inglizcha: communicative approach) chet tili o‘qitishning asosiy metodologik yondashuvi bo‘lib, o‘quvchilarning real hayotdagi kommunikativ vaziyatlarga tayyorligini oshirishga qaratilgan. Bu yondashuvda tilning asosiy vazifasi — muloqot qilish va fikr almashish ekanligi ta’kidlanadi. Kommunikativ yondashuvning maqsadi nafaqat tilni o‘rganish, balki o‘rganilgan tilni o‘quvchining shaxsiy va ijtimoiy muloqotida qo‘llay olishidir. Kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi, asosan, til o‘rganishning funksional aspektlariga e’tibor qaratishdir.

Boshqacha qilib aytganda, kommunikativ yondashuv – bu til o‘qitishda asosiy e’tiborni o‘quvchilarning muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratadigan ta’lim nazariyasi va uslubidir. Ushbu yondashuv tilni grammatik qoidalar majmuasi sifatida emas, balki real hayotiy muloqot vositasi sifatida o‘rgatishni maqsad qiladi. Kommunikativ yondashuv quyidagilar bilan tavsiflanadi

a) til o’rganish – bu muloqot qilishni o’rganish;
b) til individual sinov va xatolar tufayli yaratiladi.

Xitoy tilini o‘rganishda kommunikativ yondashuv

Xitoy tilini o’qitish jarayonida birinchidan, o’z yurtida boshq amillat vakillarining madaniyatini qanday qabul qiladi. Ikkinchidan, talabaning intellektual va psixofiziologik mexanizmlari qanday ishlaydi, yuksak aqliy faoliyati qay darajada ishlaydi(bu juda muhimdir). Uchinchidan, bu talabalarning o’zaro dialekt madaniyatiga o’rgatadi, bu esa hozirgi zamonning eng dolzarb masalalaridir.

XX asrning 60-yillarida E.I.Passov xorijiy tillarni o’rganishda kommunikativ usulni ishlab chiqdi. U ning bu usuli 40 yil davomida Rossiya va boshqa shaharlarda

ham foydalanib kelingan. Xorijiy tillarni o’qitishdagi kommunikativ usul unda turli xil modifikatsiyalardan foydalaniladi. Kommunikativ usul yondashuvi bu dasturlarni tuzib, xorijiy tillarni so’zlashuv uslubida qo’llay bilishdir.

Rossiyada chet tillarini o‘qitishda kommunikativ usulning asoschisi Passov E. I., pedagogika fanlari doktori, professor, Rossiya Federatsiyasining xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi sohasidagi taniqli olimdir. Aynan Passov E. I. o‘qitishning kommunikativ usuli tamoyillarini ishlab chiqdi:

1. Nutq yo‘nalishi prinsipi;
2. Uning shaxsiy jihatining etakchi roli bilan individuallashtirish prinsipi;
3. Funktsionallik prinsipi;
4. Vaziyat prinsipi;
5. Yangilik prinsipi.

Ta’limda integratsiya – bilimlarning bir-biri bilan organik birlashishi va yangi, yagona barqaror umumlashgan-yaxlit bilimni hosil qilish degan ma’nolarni anglatadi. Integratsiya tushunchasiga beriladigan ta’riflar turlicha bo’lib, bu ta’riflarning umumiylik tomoni: integratsiya atrofimizdagi borliqqa yaxlit, bir butun obyekt sifatida qarashga erishishdan iborat. “Integratsiya” tushunchasi bevosita XVIII asrlarda G.Spenser tomonidan qo’lyozmalarda qo’llanilgan.

Integrativ yondashuv – turli fanlardan olingan bilimlar, ko’nikma , malaka va tajribalarni hisobga olish, tayanish, birlashtirish va kompetentsiyalarini baravar rivojlanishini nazarda tutadi.

Psixologik turkum fanlarida barcha insonlarga xos bo’lgan fikrlash operatsiyalari bilish faoliyatining yaxlit qismi sifatida fikrlash strategiyalarining ko’p miqdordagi qismini tashkil qiladi hamda sintez orqali turli darajadagi va tavsifdagi tizimlarni birlashtiradi.

O‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta’minlashning didaktik jihatlari faqatgina muayyan o‘quv fanlari mazmunida turli bilim va tushunchalarni ifodalash bilan cheklanib qolmaydi deyiladi. Rossiyalik tadqiqotchi L.V.Pivovarova ishlarida integrativ metodikaning ta’limga texnologik yondashuvlar tavsifi quyidagicha bayon qilingan: “integrativ metodika” atamasini qo‘llashdan asosiy maqsad ta’limga texnologik yondashuvning asosiy xususiyatlarini aniqlab, ulardan foydalanishda pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini uyg‘unlashtirishni tatbiq qilish modellarini ishlab chiqishdir. Ta’lim jarayonida integratsiyalashgan texnologiyalarning qo‘llanishi bir qancha didaktik, metodik va kognitiv omillarga bog‘liq. Ta’lim jarayoni, uning sub’ektlari va ob’ekti o‘rtasidagi integrativ jarayonlarni tashkil qilishning o‘zi o‘quvchilarda o‘quv-bilish faoliyati natijasidagi kognitiv kategoriyalar asosidagi modellar mavjudligini taqozo qiladi. O‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta’minlashga oid pedagogik tadqiqotlarda uni mustaqil tadqiqot yo‘nalishi sifatida mujassam rivojlanayotgan shaxsga nisbatan pedagogik ta’sir ko‘rsatish imkoniyati sifatida qarash lozim. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda o‘quv 466 fanlararo aloqadorlikning tarbiyaviy ahamiyatiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘quv fanlariaro aloqadorlik ta’minlangan pedagogik sharoitda o‘qitish jarayonida tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda o‘qituvchining tutgan o‘rnini alohida ajratib ko‘rsatish lozim.

Integrativ yondashuvning asosiy tamoyillari

1. Fanlararo bog‘liqlik – ingliz tili boshqa fanlar (tarix, geografiya, biologiya va boshqalar) bilan bog‘langan holda o‘qitiladi.
2. Madaniy integratsiya – til o‘rganish jarayonida o‘quvchilar ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarning madaniyati, qadriyatlari va an’analari bilan tanishtiriladi.
3. Turli til ko‘nikmalarining uyg‘unligi – o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida gapirish, tinglash, o‘qish va yozish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.
Аннотация:В данной статье анализируются возможности выражения культурных реалий на английском и узбекском языках при переводе и трудности, возникающие при этом. Культурные реалии — это слова или словосочетания, отражающие образ жизни, традиции, ценности и обычаи нации. Подчеркивается необходимость учета культурных различий и особенностей языка в процессе перевода. В статье также рассматриваются основные методы, используемые при переводе культурных реалий (эквивалентность, транспозиция, пояснительный перевод и т. д.), и их эффективность. В статье также даются практические советы переводчикам с учетом культурных и языковых различий между английским и узбекским языками.

Ключевые слова: *различия, эквивалентность, пояснительный перевод, языковые различия, лингвистика, культурный контекст.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniy voqelikni ingliz va o‘zbek tillarida tarjimada ifodalash imkoniyatlari va bu jarayonda yuzaga keladigan qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Madaniy voqelik – xalqning turmush tarzi, an’analari, qadriyatlari, urf-odatlarini aks ettiruvchi so‘z yoki iboralardir. Tarjima jarayonida madaniy farqlar va tilning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi. Maqolada madaniy voqelikni tarjima qilishda qo‘llaniladigan asosiy usullar (ekvivalentlik, transpozitsiya, izohli tarjima va boshqalar) va ularning samaradorligi ham ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi madaniy va lingvistik farqlarni hisobga olgan holda tarjimonlar uchun amaliy maslahatlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *farqlar, ekvivalentlik, izohli tarjima, lingvistik farqlar, tilshunoslik, madaniy kontekst.*

Introduction: The translation process requires consideration not only of the grammatical structure of a language, but also of cultural differences. Each language has its own cultural realities, which reflect the historical experience, customs, values, and lifestyle of its people. Translating cultural realities accurately and effectively requires a deep understanding of the language and culture on the part of the translator. The representation of cultural realities in translation between English and Uzbek can be particularly challenging, as each language has its own cultural context and linguistic structures.

The differences between English and Uzbek are particularly evident in the translation of cultural realities. While cultural realities in English are often globally recognized and widespread, Uzbek reflects its own national and historical context. Therefore, special approaches and methods are needed to express cultural realities in translation. This article examines how cultural realities in English and Uzbek are expressed in translation and the difficulties of this process. The article analyzes the main methods of translating cultural realities and shows how they can help translators overcome cultural differences.

Main Part: Cultural realities are words and phrases that are expressed through language and reflect the cultural, historical and social characteristics of a particular nation or society. They describe the traditions, values and customs of the society in which they live. In translating cultural realities, in addition to mastering the language, it is necessary to have a deep understanding of cultures. Correctly expressing cultural realities in translation ensures an integral connection between language and cultures. Good reflection of cultural realities in translation has not only artistic, but also social and educational significance. English is one of the most widely used languages on a global scale, and its cultural realities reflect the cultures of many countries. Cultural realities in English are often related to American or British culture, but they are spread worldwide. For example, holidays such as *“Thanksgiving,” “Halloween,”* or *“Fourth of July”* in English are unique to American culture, and when translating them into Uzbek, equivalents or explanations in Uzbek culture can be used.

The Uzbek language, in turn, has its own cultural realities that reflect the historical, cultural, and social characteristics of Uzbekistan. Uzbek expressions such as *“Navruz,” “Hospitality,”* or *“Dostlik rishtasi”* pose difficulties in translating directly into English. When translating these cultural realities into English, explanatory translation or contextualization methods are usually used.

Translators use several methods to translate cultural realities, each with its own advantages and limitations.

Some cultural realities, such as universal holidays or concepts, may also exist in other cultures. In such cases, the translator uses an equivalent word. For example, the English word *“Christmas”* is directly translated into Uzbek as *“Yangi yil.”*

Some cultural realities are known only in their own culture and cannot be directly translated. When translating cultural realities, sometimes there is a need to change the syntactic or semantic structure of the language. This method is useful in adapting cultural realities to the language.

When translating cultural realities, their meaning and context are always taken into account. In translation, the correct understanding of the reality and the expressed meaning are important.

The specific cultural differences between the English and Uzbek languages cause many difficulties in the translation process. When translating cultural realities, the peculiarities of the language, the social context and the different values of cultures affect the translation. For example, the culture of hospitality and sincerity in the Uzbek language requires how to express them in English, because such qualities are reflected in a different way in English. Therefore, translators need to correctly understand cultural differences and choose the appropriate approach.

Translating cultural realities is not only a linguistic process, but also a complex task that requires a deep understanding of intercultural relations. The specific features of the representation of cultural realities in translation in English and Uzbek determine important practical rules for translators. Translators need to use appropriate approaches, taking into account cultural differences. When translating cultural realities, accurate and precise translation can be obtained using methods such as interpretive translation, equivalence, transposition, and contextual approach.

The Uzbek language, in turn, has its own cultural realities that reflect the historical, cultural, and social characteristics of Uzbekistan. Uzbek expressions such as *“Navruz,” “Hospitality,”* or *“Dostlik rishtasi”* pose difficulties in translating directly into English. When translating these cultural realities into English, explanatory translation or contextualization methods are usually used.

Translators use several methods to translate cultural realities, each with its own advantages and limitations.

Some cultural realities, such as universal holidays or concepts, may also exist in other cultures. In such cases, the translator uses an equivalent word. For example, the English word *“Christmas”* is directly translated into Uzbek as *“Yangi yil.”*

Some cultural realities are known only in their own culture and cannot be directly translated. When translating cultural realities, sometimes there is a need to change the syntactic or semantic structure of the language. This method is useful in adapting cultural realities to the language.

When translating cultural realities, their meaning and context are always taken into account. In translation, the correct understanding of the reality and the expressed meaning are important.

Results and discussion: The comparative analysis of cultural expressions in English and Uzbek texts revealed significant insights into how culture influences language and translation. The study found that cultural realities embedded in source texts often carry meanings that are deeply rooted in specific social norms, traditions, and historical contexts, which makes their accurate translation both challenging and essential.

In English texts, cultural elements are frequently expressed through idioms, metaphors, and references to Western historical or pop-cultural events. Translating these into Uzbek often requires either adaptation (domestication) or explanation (foreignization). For example, phrases like “kick the bucket” or “raining cats and dogs” have no direct equivalents in Uzbek and therefore must be translated in ways that preserve the intended meaning while remaining culturally accessible.

Conversely, Uzbek texts include rich references to local customs, traditional foods (e.g., *osh*, *sumalak*), and culturally specific concepts like *mehmondo‘stlik* (hospitality). When translated into English, these expressions often risk losing their cultural flavor unless the translator provides additional context or utilizes culturally analogous expressions.

The findings suggest that successful translation of cultural realities depends heavily on the translator's competence in both languages and cultures. It was observed that literal translations often lead to misinterpretations or a loss of meaning, especially when cultural connotations are strong. Dynamic equivalence and cultural adaptation emerged as the most effective strategies for maintaining the integrity and spirit of the original text.

Furthermore, interviews with bilingual translators highlighted that the balance between fidelity to the source and clarity for the target audience is key. Translators frequently face the dilemma of choosing between cultural preservation and reader comprehension, with the decision often influenced by the purpose of the translation (e.g., literary, academic, or commercial). Enhancing awareness of cultural differences and fostering intercultural competence among translators can greatly improve the quality and authenticity of cross-cultural communication.

Conclusion: The specific cultural differences between the English and Uzbek languages cause many difficulties in the translation process. When translating cultural realities, the peculiarities of the language, the social context and the different values of cultures affect the translation. For example, the culture of hospitality and sincerity in the Uzbek language requires how to express them in English, because such qualities are reflected in a different way in English. Therefore, translators need to correctly understand cultural differences and choose the appropriate approach.

Translating cultural realities is not only a linguistic process, but also a complex task that requires a deep understanding of intercultural relations. The specific features of the representation of cultural realities in translation in English and Uzbek determine important practical rules for translators. Translators need to

use appropriate approaches, taking into account cultural differences. When translating cultural realities, accurate and precise translation can be obtained using methods such as interpretive translation, equivalence, transposition, and contextual approach.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуллаева, М. Р. (2021). Инглиз тилидан узбек тилига таржима жараёни ва унинг мохияти хусусида. *International journal of discourse on innovation, integration and education*, *2*(2), 297-306.
2. Abdullayeva, M. R. (2022). Grouping of opposite options of verbal phrasemas in uzbek language (example of translations of agatha christie's works). *Scientific progress*, *3*(2), 190-193.
3. Botirova, D. B., Abdullayeva, M. R., Khaydarov, I. Y., Khaydarova, R. N. A., & Sharofova, S. S. Social Psychological Features of the Process of Professional Stress in Pedagogical Activity. *Journal Power System Technology ISSN*, 1000-3673.
4. G‘ulomov, B. (2018). *Madaniy realiyalar va ularning tarjimadagi o‘rni*. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
5. Karimova Z. (2017). *Madaniyatlararo kommunikatsiya va tarjima*. Tashkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
6. Begmatova Nigina. The Impact of Technology and Artificial Intelligence on Learning English. (2025). *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599)*, *3*(3), 40-43. https://grnjournal.us/index.php/AJRCS/article/view/7216
7. Касимова С. Фонологические особенности паузной формы. *Восточный факел*, *1*(1), 2015. 17-20.
8. Mamatqulova Z. (2020). *Tarjimada madaniy realiyalar: teoriyalar va amaliyot*. Tashkent: Ilm nashriyoti.
9. Nadirova D. (2016). *Ingliz va o‘zbek tillaridagi madaniy farqlar va ularning tarjimada ifodalanishi*. Tashkent: Sharq nashriyoti.
10. Nabieva D. (2019). *Madaniy realiyalarni tarjima qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar*. Tashkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
11. Khodjayeva, D. K. (2024). GIVING SPEECH LABELS IN TRANSLATIONS AND THEIR INTERPRETATION. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, *3*(34), 197-203.

MAQOLLARDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR VA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARNING TARJIMA MUAMMOSI

Shohsanam Muxtorbekqizi Bekmuratova
O‘qituvchi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada umuminsoniy qadriyatlar va milliy-madaniy xususiyatlarning tarjima jarayonidagi o‘rni va ahamiyati, nafaqat til o‘rganish jarayoni, balki madaniyatlararo aloqalar, dunyoqarash va qadriyatlar sistemasi sifatida ham muhimligi tahlilga tortilgan. Ushbu maqola tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolarni, xususan, umumiy insoniy qadriyatlarni milliy madaniyat kontekstida to‘g‘ri ifodalash zaruratini ko‘rib chiqadi. Maqolada, tarjimonning madaniy yondashuvlari, terminologiya va iboralarning o‘ziga xosligi,

madaniyatlararo farqlar va ularning tarjimaga ta'siri keltirilgan. Milliy xususiyatlar va qadriyatlar turli madaniyatlar o‘rtasida o‘zgartirilgan holda qanday ifodalanishi kerakligi muhokama qilinadi. Maqola, tarjima metodologiyasini rivojlantirish va madaniyatlararo to‘g‘ri muloqotni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *tarjima, madaniyatlararo aloqalar, tarjimonning roli, madaniyat va til, tarjima muammolari, madaniyatlararo farqlar.*

Абстракт: В статье анализируется роль и значение общечеловеческих ценностей и национально-культурных особенностей в процессе перевода не только как в процессе изучения языка, но и как в системе межкультурной коммуникации, мировоззрения и ценностей. В статье рассматриваются проблемы, возникающие при переводе, в частности необходимость точного выражения общечеловеческих ценностей в контексте национальной культуры. В статье рассматриваются культурные подходы переводчика, специфика терминологии и выражений, межкультурные различия и их влияние на перевод. В нем обсуждается, как национальные особенности и ценности должны быть выражены в измененной форме в разных культурах. Статья важна для разработки методологии перевода и обеспечения правильной межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: *перевод, межкультурная коммуникация, роль переводчика, культура и язык, проблемы перевода, межкультурные различия.*

Abstract: This article analyzes the role and importance of universal human values and national-cultural characteristics in the translation process, not only as a language learning process, but also as a system of intercultural contacts, worldviews and values. This article considers the problems that arise in translation, in particular, the need to correctly express universal human values in the context of national culture. The article presents the cultural approaches of the translator, the specificity of terminology and expressions, intercultural differences and their impact on translation. It discusses how national characteristics and values should be expressed in a modified form between different cultures. The article is of great importance in developing translation methodology and ensuring proper intercultural communication.

Keywords: *translation, intercultural contacts, the role of the translator, culture and language, translation problems, intercultural differences.*

Kirish qismi: Tarjima faqatgina so‘zlarni yoki iboralarni bir tildan boshqasiga o‘zgartirish emas, balki madaniyatlararo aloqalarning o‘ziga xos jarayonidir. Har bir til o‘ziga xos madaniyat, urf-odatlar va qadriyatlar tizimiga asoslanadi. Shu bois, tarjima jarayonida milliy-madaniy xususiyatlar va umumiy insoniy qadriyatlarning to‘g‘ri ifodalanishi katta ahamiyatga ega. Tarjimon, nafaqat tilni bilishi, balki madaniyatlararo farqlarni tushunishi, shu asosda ma’lum iboralar va kontseptsiyalarni to‘g‘ri va aniq tarzda tarjima qilishi lozim.

O‘zbekistonda va boshqa mamlakatlarda tarjima sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar, tarjima qilishda yuzaga keladigan eng katta muammolardan biri, bu milliy-madaniy farqlarni hisobga olish zarurati ekanligini ko‘rsatadi. Bu maqolada umumiy insoniy qadriyatlar va milliy-madaniy xususiyatlarning tarjima jarayonida

qanday ifodalanganligi, tarjimonda yuzaga keladigan muammolar va ular bilan bog‘liq metodologik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Asosiy qism: Tarjima jarayonida umumiy insoniy qadriyatlar va milliy-madaniy xususiyatlarni to‘g‘ri va aniq ifodalash bir necha omillarga bog‘liq. Tarjimon nafaqat so‘zlarni, balki til va madaniyatning umumiy, jahon miqyosidagi qadriyatlarini ham hisobga olish kerak. Umumiy insoniy qadriyatlar - bu barcha insonlar uchun bir xil ahamiyatga ega bo‘lgan, dunyo miqyosida o‘zgarmaydigan tushunchalardir. Masalan, erkinlik, tenglik, adolat kabi tushunchalar.

Biroq, bu qadriyatlarning har bir madaniyatdagi izohi va ifodasi turlicha bo‘lishi mumkin. Misol uchun, "adolat" tushunchasi o‘zbek madaniyatida muayyan diniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstda talqin qilinishi mumkin, bu esa boshqa madaniyatlarda boshqa ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli, tarjimon ushbu qadriyatlarni tarjima qilishda faqat so‘zning bir xil ekvivalentini tanlab olishni emas, balki kontekstni va madaniyatlararo farqlarni hisobga olishi kerak.

Milliy-madaniy xususiyatlar tarjima jarayonida alohida o‘rin tutadi. Har bir milliy madaniyatda o‘ziga xos iboralar, urf-odatlar, adabiy meros, folklor va tarixiy voqealar mavjud. Masalan, o‘zbek tilidagi "do‘stlik" yoki "mehmondo‘stlik" tushunchalari boshqa tillarda to‘liq ifodalanmasligi mumkin, chunki ularning ma’nosi faqat o‘zbek madaniyatining muayyan kontekstida tushuniladi. Shu sababli, tarjimon madaniy kontekstni yaxshi tushunishi va tarjima qilayotgan asar yoki matnning asl mazmunini to‘liq saqlab qolishga harakat qilishi zarur.

Shuningdek, tarjimonlarning lingvistik va madaniy bilimlaridan tashqari, ularning psixologik yondashuvi ham muhim ahamiyatga ega. Tarjimada yuzaga keladigan eng katta muammolardan biri, bu "ekvivalentlik" muammosidir. Tarjima qilinadigan tilning leksik va grammatik tizimi har doim ham boshqa tilning tizimi bilan to‘g‘ri kelmaydi. Shu sababli, tarjimon ba’zida original matnni faqat so‘zma-so‘z emas, balki mazmun va kontekstni hisobga olib, moslashtirilgan tarzda ifodalashga majbur bo‘ladi.

Tarjima metodologiyasida madaniyatlararo farqlarni hisobga olish va ularni to‘g‘ri ifodalash uchun bir nechta yondashuvlar mavjud. Birinchi yondashuv, bu "lingvistik ekvivalentlik"dir, ya’ni tarjimonda har bir so‘zning aniq ekvivalenti topishga intilish. Biroq, bu yondashuv ko‘p hollarda madaniyatlararo farqlarni hisobga olmaydi va natijada matnning asl ma’nosi o‘zgarishi mumkin. Ikkinchi yondashuv esa "madaniyatlararo ekvivalentlik"dir, ya’ni tarjima jarayonida madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini saqlashga intilish.

Bundan tashqari, tarjima qilishda "adaptatsiya" va "interpretatsiya" usullaridan foydalanish ham muhimdir. Adaptatsiya usulida, tarjimon matnni yangi madaniyatga moslashtiradi, ba’zan original matnning ba’zi qismlari yoki tushunchalari o‘zgartiriladi. Interpretatsiya usulida esa, tarjimon asl matnning ma’nosini o‘zbek madaniyati kontekstida izohlaydi va ba’zi tushunchalarni yoki iboralarni moslashtiradi.

Tarjima sohasida ishlaydigan olimlar, masalan, V.N.Komissarov, Y.S.Stepanov va boshqalar, madaniyatlararo aloqalarda yuzaga keladigan tarjima muammolarini chuqur tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlari, tarjimonda madaniy

realiyalarni saqlash va to‘g‘ri ifodalashning ahamiyatini ta’kidlaydi. Ularning fikriga ko‘ra, tarjimon nafaqat tilni, balki madaniyatlararo aloqalarni ham yaxshi tushunishi lozim.

Umuman olganda, maqola tarjima jarayonida umumiy insoniy qadriyatlar va milliy-madaniy xususiyatlarning muhimligini, shuningdek, tarjima metodologiyasini rivojlantirishda madaniyatlararo farqlarni hisobga olish zaruratini ko‘rsatadi. Tarjimonning madaniy bilimlari, til bilimi va psixologik yondashuvi bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

Milliy-madaniy xususiyatlar, o‘z navbatida, tarjima jarayonida ko‘plab muammolarni yuzaga keltiradi. O‘zbek tilidagi iboralar, urf-odatlar, an’analarga oid so‘z va iboralarni ingliz tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar o‘ta ko‘p. Buning natijasida ba’zi milliy xususiyatlar noaniq yoki noto‘g‘ri tarjima qilinishi mumkin. Misol uchun, o‘zbek tilidagi "mehmondo‘stlik" yoki "beshik-tomo" kabi iboralar ingliz tiliga aniq tarjima qilinmasligi, bu so‘zlarning o‘zbek madaniyatidagi chuqur ma’nosini aniq ifodalashni qiyinlashtiradi.

Madaniy farqlarni samarali tarjima qilishda bir qancha usullarni qo‘llash mumkin. Tadqiqotda lingvistik ekvivalentlik, madaniyatlararo ekvivalentlik va adaptatsiya kabi metodologik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Lingvistik ekvivalentlik usuli tarjima jarayonida so‘zma-so‘z ekvivalentlar tanlashga asoslanadi, ammo bu usul milliy xususiyatlarni ifodalashda samarali bo‘lmasligi mumkin. Madaniyatlararo ekvivalentlik esa, tarjimonni madaniy xususiyatlarni to‘g‘ri talqin qilishga undaydi. Tarjimada shaxsiy yondashuvlar ham muhim bo‘lib, har bir tarjimonning madaniyatlarni tushunish darajasi va tilga bo‘lgan bilimlari tarjima sifatiga bevosita ta’sir qiladi.

Madaniyatlararo farqlarni qabul qilish va tarjimaga ularni qo‘shish, tarjimonning kreativligini oshiradi. Ba’zi hollarda, madaniy xususiyatlarni aniq va to‘liq ifodalash uchun tarjimonda ba’zi o‘zgartirishlar qilish zarur bo‘ladi. Bu, ayniqsa, masalan, o‘zbek tilidagi xalqona iboralarni ingliz tiliga moslashtirishda o‘rinli bo‘ladi. Shunday qilib, tarjimon faqat so‘zlarni emas, balki madaniyatlarni ham anglab, madaniy kontekstni saqlab qolishi kerak.

Tarjima jarayonida ijtimoiy va siyosiy kontekstlarning ham muhim o‘rni bor. Xususan, global siyosiy muammolar, millatlararo aloqalar va madaniy integratsiyalar tarjima jarayonida ko‘plab o‘zgarishlarga olib keladi. Madaniy qadriyatlar biror mamlakatning siyosiy yoki ijtimoiy holatini aks ettirgan holda, tarjimonning maqsadi shuni inobatga olgan holda tarjima qilishdir.

Tadqiqotda olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tarjima jarayonida milliy-madaniy xususiyatlarni to‘g‘ri va samarali ifodalashning eng yaxshi yo‘li — bu madaniyatlararo farqlarni chuqur anglash va mos yondashuvlarni tanlashdir. Umumiy insoniy qadriyatlar va milliy-madaniy xususiyatlarni tarjima qilishda tarjimonning ma’naviy va madaniy bilimlari muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, tarjimonning madaniy bilimlarini kengaytirish, milliy xususiyatlarni tushunish va ularga moslashish tarjima sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Shu bilan birga, tarjima jarayonini yanada samarali qilish uchun metodologik yondashuvlarni yangilash, tarjimonlar uchun madaniyatlararo treninglar tashkil etish

va o‘quv dasturlarini takomillashtirish zarur. Tarjima faqat so‘zlar emas, balki madaniyatlar, urf-odatlar va qadriyatlarni o‘zgartirishni talab etadi. Bu boradagi ishlar davom ettirilishi kerak, chunki madaniyatlararo farqlarni to‘g‘ri tushunish va ifodalash o‘zaro anglashuv va kommunikatsiya jarayonining asosidir.

Xulosa: Maqolalarda umumiy insoniy qadriyatlar va milliy-madaniy xususiyatlarning tarjima muammosi haqidagi tahlil, tarjima jarayonida yuzaga keladigan murakkabliklarni va ularni hal qilish yo‘llarini yoritib berdi. Tarjima faqatgina so‘zlar yoki iboralarni o‘zgartirish emas, balki bir madaniyatdan boshqa madaniyatga o'tish jarayonidir, bu esa tarjimonning faqat til bilimiga emas, balki madaniy kontekstni tushunishiga ham bog‘liqdir.

Tarjimaning eng asosiy maqsadi - bu asl matndagi mazmunni va ma’noni to‘liq va aniq etkazishdir. Biroq, har bir madaniyatda umumiy insoniy qadriyatlar turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan, "erkinlik", "tenglik" yoki "adolat" kabi qadriyatlar, bir tomondan, global miqyosda teng ahamiyatga ega bo‘lsa, boshqa tomondan, ularning yoritilishi va ifodalash usullari har bir millat va madaniyatda o‘ziga xos bo‘lishi mumkin. Tarjimon, shu qadriyatlarni ma’no va kontekstga mos ravishda ifodalashda, madaniyatlararo farqlarni hisobga olishga majbur.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. G‘ofurova N. "Tarjima va madaniyat: Tarjimaning madaniy o‘lchovlari". Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. 2018.
2.Mirzoeva D. "Madaniy-realistik yondashuvlar va tarjimadagi muammolar". Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti. 2015.
3.Xudoyberganova A. "Tarjimaning madaniyatshunoslik aspektlari". Tashkent: Sharq. 2017.
4.Akhmedov A. "Tarjimaning milliy madaniyatga ta’siri". Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti Nashriyoti. 2019.
5. Bekmuratova, S. M. Q. (2023). CULTURAL FEATURES OF PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK ON THE TOPIC OF HOMELAND. *Scientific progress*, *4*(5), 153-157.
6. Bekmuratova, S. (2024). Linguocultural features of proverbs on the topic of patriotism in the Uzbek and English languages. *Modern Science and Research*, *3*(1), 1-3.
7. Bekmuratova, S. M. K. (2022). TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN INCLUSIVE EDUCATION. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(3), 534-538.

POLIGLOTLIK VA UNING JADIDLAR IJODIDAGI TALQINI

Komilova Dildora,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi
dkomilova703@gmail.com, tel:+998914442961

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijodkorlarning ko‘p tilni bilishgani, bunga yoshlarni ham da’vat qilishgani, til va uning sofligi uchun kurashishgani, til odobini targ‘ib etishgani xususida fikr yuritilgan. Ularning bu haqdagi maqolalari, til odobi aks etgan she’riy misralari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *til, til odobi, shoir, poliglot, g‘azal, maqola, jadid.*

Аннотация: В данной статье рассматривается знание несколькими языками со стороны творческих личностей, их призывы к молодежи овладевать языками, борьба за чистоту языка, а также пропаганда речевого этикета. Анализируются их статьи, посвящённые данной теме, и поэтические строки, в которых отражён речевой этикет.

Ключевые слова: *язык, речевой этикет, поэт, полиглот, газель, статья, джадид.*

Annotation: This article discusses how writers and poets were multilingual, encouraged young people to learn multiple languages, fought for the purity of language, and promoted linguistic etiquette. Their articles on these topics, as well as poetic verses reflecting linguistic etiquette, were analyzed.

Keywords: *language, linguistic etiquette, poet, polyglot, ghazal, article, jadid.*

Asosiy qism: Aksariyat jadidlar poliglot bo‘lishgan, ya’ni ular bir necha tilni bilishgan. Ulardan biri Siddiqiy Ajziy bo‘lib, u o‘zbek tili bilan birga fors-tojik, arab, turk, ozarbayjon va rus tillarini mukammal darajada egallagan. U «Mir’oti ibrat» asarining «Xotima»sida shunday deydi:

Do‘rt ish bana bundan erdi maqsud,
Bundan o‘la xalq baxti mas’ud:
Ilmi a’lo olmoq va fununni,
Davlatni, lisonni, zakunni.

Shoir fikricha, to‘rt narsa: ilm-fan, davlat, til, qonunsiz hech bir millat istiqbolga erisha olmaydi. Ularni qo‘lga kiritmagan millat halokatga mahkumdir. Demak, til insonni va u mansub bo‘lgan millatni yuksaltiruvchi kuchlardan biridir.

Is’hoqxon Ibrat ham o‘z davrida to‘rt tilni bilgan. Bular: arab, fors, hind-urdu va ingliz tillari bo‘lgan. Ammo u Sharq xalqlari tillari bilan bir qatorda G‘arb xalqlari tillarini ham bilish zarur deb hisoblagan. Shu sababli Arabistonda bo‘lgan davrida fransuz tilini, Hindistonda ingliz tilini o‘rgangan. Buni tasdiqlab, zamondoshi Ibrohim Davron uning “turkcha, forscha, hindicha, ruscha lison bilib, yana ruscha, fransuzcha, armanicha va boshqa xatlar yozmoqqa mohir” bo‘lganini alohida ta’kidlaydi.

Is’hoqxon Ibrat bu muhim masalada o‘z xalqiga yordam berish maqsadida olti tilli: arabcha, forscha, hindcha, turkcha, sartcha (o‘zbekcha) va ruscha so‘zlarni o‘z ichiga olgan «Lug‘ati sittati alsina»ni ham tuzgani ma’lum.

Ibratning shoir sifatida yaratgan asarlarida til odobiga da’vat motivi alohida o‘ringa ega. Jumladan, u “Ado qilasiz” sarlavhali g‘azalida “suchuk til” iborasini qo‘llab, dilbari jononga qarata shunday murojaat qiladi:

Suchuk til bila tabassum qilib, so‘rab holim,
Avvalda va’da berib, oxiri jafo qilasiz.

Unda oshiq suygan dilbaridan boshqasiga qarasa, ko‘zining qarosi kuygayligini, agar gapirsa, tili tilim-tilim bo‘lishini ta’kidlaydi. Shu o‘rinda shoir tilim so‘zini omonim sifatda qo‘llagan. Birinchisida uni zabon/til ma’nosida, ikkinchisida esa bo‘lak-bo‘lak/tilim-tilim ma’nosida ishlatgan:

Ko‘zum qarosi kuygayki, boshqaga qarasam,

Agar gapursam, *tilimni tilim-tilim qilasiz*.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek adabiy tili, uning sheva va lahjalari, til me’yorlari, imlosi, so‘zlar etimologiyasi haqidagi dolzarb fikr-mulohazalari, ilg‘or qarashlari qatorida har bir zamonaviy kishining birdaniga ikki emas, to‘rt tilni bilishi lozimligini ta’kidlab “Ikki emas, to‘rt til lozim” sarlavhali maqolasini yozgan. Unda “Biz turkistoniylarg‘a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur” degan alohida ta’kid mavjud. muallifning fikricha, bunga xalqimizning aksari “o‘zbakiy so‘ylashur”ligi, madrasa va udabo tili fors tili ekani, eski va yangi maktablarda forsiy nazm va nasr kitoblari ta’lim berilib kelgani, shar’iy va diniy kitoblar bo‘yicha arabiy ta’lim berilishi, mudarrislarning taqriru tarjimalari forschaligi sababdir.

Shu o‘rinda Behbudiy “Fors shoiru udabosi asarlari qiyomatg‘acha lazzati ketmayturgan xazinai ma’naviydurki, mundan foydalanmoq uchun ovrupoyilar milyardlar sarf etarlar” deb bashorat qilgani bugungi kunda o‘z isbotini topmoqda.

Behbudiy yozganidek, “farang va rus donishmandlarining asarlaridan foydalanmoq turkiy yo rusiy va farangiy bilmak ila mumkin bo‘lur, na uchunki bugun usmonli, Kafkaz va Qazon turklari zamona ulamosi asarini turkiyg‘a tarjima qilib, ko‘paytirgandurlar, ya’ni turkiy bilgan kishi zamonni bilur”. Uning fikricha, “arabiy til din uchun na daraja lozim bo‘lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur”.

Mahmudxo‘ja Behbudiyni mana shular asosida turkistonlik ziyolilar orasidan yetishib chiqqan ilk tilshunos deb atashadi. Uning lingvosotsiologiya, dialektologiya, lingvokulturologiya, etnolingvistika bo‘yicha qarashlari hozirgacha o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Mahmudxo‘ja Behbudiyning tilshunoslikka doir “Ikki emas, to‘rt til lozim”, “Har millat o‘z tili ila faxr etar”, “Til masalasi”, “Sart” so‘zi majhuldir”, “Sart so‘zi ma’lum bo‘lmadi” singari maqolalari xuddi shu jihatdan ahamiyatlidir.

Behbudiy fikricha, “begona tildan so‘z olmoqdan qutulgan til yo‘qdur. Anglischani arabchadan so‘ngra eng boy til derlar”.

Mahmudxo‘ja Behbudiy til va dil birligi xususida alohida to‘xtalib, bu borada «...til birligining foydalari juda yaxshi ma’lum. Zero, til birligi do‘stlik, muhabbat, bir-biriga yordam va jipslashuvning asosi», degan amaliy xulosaga keladi. Yana u (umum)adabiy til masalasida tilni soddalashtirish, omma tushunadigan shaklga olib kelish fikrini qo‘llab-quvvatlasa-da, tilni soflashtirish, ya’ni arabcha, forscha so‘zlar o‘rniga muqobillarini qidirib topish va tilga tatbiq etish masalasini «ijrosi mumkin emas, quruq xayoli fosidgina» deb baholaydi. Sabab, asrlar davomida arab va fors tili ta’sirida qolgan turkiy tilni «yana bir necha ming sanada bularni ta’siridan chiqarmoq» ishiga berilsak, «ma’nan va moddatan va fannan mahkum millatlarni(ng) tili (qatorida) bo‘lgan tilimizg‘a yana taraqqiy etgan millatlarni(ng)» tilidan yangi so‘zlar kirib kelaveradi, deb uqtiradi. Ko‘pchilik ma’rifatparvarlar o‘zlashmalardan voz kechish va ularni turkiycha so‘zlar bilan almashtirish masalasini kun tartibiga qo‘ygan bir paytda Behbudiy bu sohada shoshma-shosharlik bilan hukm chiqarish yaramasligi, bunday o‘ta muhim, qiyin bir ishning amalga oshishi uchun yuz yillab vaqt kerakligini uqtiradi. Agar asrlar davomida arab va fors so‘zlaridan foydalanib kelingan millat tili lug‘atidan ularning quvib chiqarilishi

yomon oqibatlarga olib kelishi ta’kidlanadi. Olim voz kechilgan so‘zlar o‘rnini boshqa bir hukmron til so‘zlari egallashi mumkinligidan ogohlantiradi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning bu bashorati oradan yigirma yillar o‘tib o‘z isbotini topgani ayon, ya’ni tilimizdagi fors va arab o‘zlashmalar o‘rnini ruscha so‘zlar egallay boshlagani sir emas.

Xullas, o‘zbek ijodkorlarining aksariyati yo zullisonayn (ikki tilda), yo ko‘p tilli (poliglot, ya’ni ikkitadan ortiq tilda) ijod qilishganki, bu holat ularning asarlari o‘sha tillar sohiblari orasida ham keng tarqalishiga bevosita zamin yaratgan.

Adabiyotlar

1. Исҳоқхон Тўра Ибрат. Танланган асарлар. – Тошкент: «Маънавият», 2005. – 200 б.
2. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Икки эмас, тўрт тил лозим // «Ойна» журнали. – 1913 йил. – 1-сон. – Б.12-14.
3. Islomova, M. M. Ko‘p tillilik va til odobi jadid ijodkorlari qarashlarida // O‘zbek tili va adabiyoti, 2023. – №3. – B. 196–202.
4. Shodiyeva, N. Sh. Jadidlar tilshunoslik qarashlarining zamonaviy talqini // Til va adabiyot ta’limi, 2021. – №4. – B. 33–38.
5. To‘xtayeva, M. I. Jadidlarning ko‘p tillilikka munosabati va til tarbiyasi g‘oyalari // Ilm sarchashmalari, 2020. – №2. – B. 55–59.
6. Karimova, D. R. Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida til va millat tushunchasi // Filologiya masalalari, 2023. – №1. – B. 77–82.
7. Qosimova, N. I. Is’hoqxon Ibratning tilshunoslik merosi // Zamonaviy tilshunoslik muammolari, 2019. – №3. – B. 101–107.
8. Rashidova, G. T. Jadidlar til siyosati va lingvokulturologik yondashuvlar // Til va madaniyat, 2022. – №2. – B. 43–48.
9. Abduqodirova, D. H. Til odobi: jadidlar qarashlari va bugungi ehtiyojlar // O‘zbek tili va adabiyoti, 2024. – №1. – B. 88–93.
10. Usmonova, S. K. Tarixiy shaxslar tilshunoslikda: Behbudiy va Ibrat tajribalari // Filologik tadqiqotlar, 2021. – №2. – B. 112–118.

MADANIY REALIYALAR ORQALI INGLIZ TILI LEKSIKASINI O‘RGATISH: LINGVOMADANIY YONDASHUV

Dilshoda Kaxramonovna Maksudova
Katta o‘qituvchi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada madaniy realiyalar orqali ingliz tili leksikasini o‘rgatishning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. O‘qituvchining madaniy kontekstni taqdim etishi, til o‘rgatishda nafaqat tilning grammatik va sintaktik tomonlarini, balki madaniy me’yorlarini ham hisobga olish zarurligi ko‘rsatilgan. Leksik unitlarning, ya'ni so‘zlarning va iboralar tizimining o‘ziga xosligini yoritishda lingvistik va madaniy elementlarning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. Maqolada lingvomadaniy yondashuvni qo‘llash orqali ingliz tilini o‘rgatishda o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini yanada samarali rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *madaniy realiyalar, ingliz tili, leksika, lingvistik va madaniy elementlar, lingvomadaniy yondashuv, til o‘rganish, o‘quv jarayoni, madaniy kontekst.*

Абстракт: В данной статье анализируется важность и эффективность обучения английской лексике через культурные реалии. Показано, что преподаватель должен обеспечивать культурный контекст и что при обучении языку необходимо учитывать не только грамматические и синтаксические аспекты языка, но и культурные нормы. Сочетание языковых и культурных элементов важно для выяснения уникальности лексических единиц, то есть систем слов и фраз. В статье даются практические рекомендации, направленные на более эффективное развитие языковых навыков студентов при обучении английскому языку с использованием лингвокультуро-логического подхода.

Ключевые слова: *культурные реалии, английский язык, лексика, лингвистические и культурные элементы, лингвокультурный подход, изучение языка, процесс обучения, культурный контекст.*

Abstract: This article analyzes the importance and effectiveness of teaching English vocabulary through cultural realities. It shows the need for the teacher to provide a cultural context, to take into account not only the grammatical and syntactic aspects of the language, but also cultural norms in language teaching. The combination of linguistic and cultural elements is important in highlighting the uniqueness of lexical units, that is, the system of words and phrases. The article provides practical recommendations aimed at more effectively developing students' language skills in teaching English through the use of a linguocultural approach.

Keywords: *cultural realities, English, lexicon, linguistic and cultural elements, linguocultural approach, language learning, learning process, cultural context.*

Kirish qismi: Ingliz tilini o‘rgatishda faqat tilning struktura va grammatik qoidalariga e'tibor qaratish bilan cheklanib qolish etarli bo‘lmaydi. Tilni o‘rgatish jarayonida, ayniqsa, madaniy kontekstni hisobga olish ham juda muhimdir. Ingliz tilining leksikasi nafaqat so‘zlar va iboralardan, balki bu tilga xos madaniy realiyalardan iborat bo‘lib, ularning o‘rganilishi tilni to‘liq tushunishga yordam beradi. Madaniy realiyalar orqali ingliz tili leksikasini o‘rgatish, o‘quvchilarga tilning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatlarini ham yoritib beradi. Shu nuqtai nazardan, lingvomadaniy yondashuv orqali o‘quvchilarga ingliz tilining madaniy mohiyatini, uning turli madaniyatlar bilan bog‘liqligini tushuntirish zarurati yuzaga keladi.

Lingvomadaniy yondashuv tilni o‘rgatishda, ingliz tilining mazmunini va uning ijtimoiy kontekstini tushunishni ta’minlashga yordam beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning ingliz tilidagi so‘zlarni, iboralarni va madaniy elementlarni to‘g‘ri ishlatish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, madaniyat va tilning o‘zaro bog‘liqligini tushunish orqali o‘quvchilar ingliz tilini faqatgina so‘z o‘rgatish nuqtai nazaridan emas, balki madaniy va ijtimoiy ahamiyatini hisobga olgan holda o‘rganadilar. Bu maqolada ingliz tilining leksikasini o‘rgatishda madaniy

realiyalarni qo‘llashning afzalliklari va uni samarali tarzda qanday amalga oshirish mumkinligi muhokama qilinadi.

Asosiy qism: Ingliz tilini o‘rgatish jarayonida madaniy realiyalarni tushunish, o‘quvchilarga faqat so‘zlarning ma'nosini o‘rgatish bilan cheklanmasdan, tilning ijtimoiy va madaniy kontekstini ham taqdim etishni anglatadi. Madaniy realiyalar - bu o‘quvchilarga ingliz tilining o‘ziga xosligini, o‘z madaniyati va tarixiy an’analari bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar va iboralarni tushunishga yordam beradigan elementlardir. Masalan, "Thanksgiving" (Shukronalik kuni) kabi so‘zlar faqat ingliz tilidagi so‘zlarga xos emas, balki bu so‘z orqali ingliz tilida muloqot qiladigan odamlarning madaniy an'analarini ham aks ettiradi. Ingliz tilida madaniy realiyalarni o‘rgatish, o‘quvchilarga tilning qo‘llanilish kontekstini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Madaniy realiyalar o‘z ichiga quyidagilarni oladi, masalan:

Tarixiy va madaniy atamalar: Masalan, "London Eye", "Big Ben", "Statue of Liberty", "Hollywood" kabi so‘zlar madaniyat bilan bog‘liq.

Ijtimoiy an’analar: "Cheers", "Sorry", "Excuse me" kabi iboralar ingliz tilida keng qo‘llaniladigan, lekin faqat o‘sha madaniyatda tushuniladigan odatlar va iboralardir.

Maxsus festival va bayramlar: "Christmas", "Easter", "Halloween" kabi bayramlar ingliz tilining madaniy qismiga kiradi va o‘quvchilarga nafaqat tilni, balki bayramlar bilan bog‘liq urf-odatlarni ham tushunishga yordam beradi.

Lingvomadaniy yondashuv ingliz tilini o‘rgatish jarayonida til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta'kidlaydi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat so‘zlarning to‘g‘ri ishlatilishini, balki ularning madaniy va ijtimoiy ahamiyatini ham tushunadilar. Lingvomadaniy yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilar tilni yengilroq o‘rganadilar, chunki ular ingliz tilini faqat yozma yoki og‘zaki muloqot vositasi sifatida emas, balki ingliz madaniyati, urf-odatlari va hayot tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan element sifatida ham tushunadilar.

Masalan, ingliz tilini o‘rgatishdagi lingvomadaniy yondashuvni qo‘llagan holda, o‘qituvchilar o‘quvchilarga ingliz tilidagi iboralarni faqat grammatik to‘g‘rilik nuqtai nazaridan emas, balki bu iboralarning madaniy va kontekstual ahamiyatini ham tushuntirishi zarur. "How are you?" so‘zi ingliz tilida oddiy salomlashuv bo‘lsa, lekin ba'zi madaniyatlarda bu so‘zni so‘rash, shaxsiy yondashuvni anglatadi.

Madaniy realiyalarni ingliz tiliga o‘rgatishning samarali metodlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

Madaniy mavzularni darsda muhokama qilish: Madaniy mavzular, masalan, ingliz tilidagi mashhur festivallar, bayramlar yoki milliy an’analar haqida darslar o‘tkazish orqali o‘quvchilarni tanishtirish.

Kross - madaniy faoliyatlar: Ingliz tilida muloqot qiladigan odamlarning madaniy an'analari va turmush tarziga oid faoliyatlar, masalan, film tomosha qilish,

ingliz tilidagi kitoblarni o‘qish yoki ingliz tilidagi yangi maqolalar, bloglar va hikoyalarni tahlil qilish.

Video va audio materiallar: Madaniy realiyalarni ko‘rsatishda video va audio materiallar yordamida madaniyatni jonli ravishda ko‘rsatish o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi va ularning madaniy bilimlarini boyitadi.

Amaliy mashqlar: Madaniy kontekstda so‘zlarni ishlatish mashqlari o‘quvchilarga tildan foydalanishning amaliy jihatlarini o‘rganishga yordam beradi. Masalan, o‘quvchilarga "New Year" bayrami bilan bog‘liq inglizcha iboralar yoki "Halloween"ga oid so‘zlarni ishlatib, ro‘l o‘ynash mashqlari qilish.

Madaniy realiyalar orqali ingliz tili leksikasini o‘rgatish, til o‘rganish jarayonini yanada boyitadi. Bu yondashuv nafaqat tilni o‘rgatish, balki o‘quvchilarning madaniyatga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish va ularni ingliz tilini faqat til sifatida emas, balki uning madaniy ahamiyatini ham o‘rganish imkonini beradi. Madaniy realiyalarni ingliz tili darslariga integratsiyalash o‘quvchilarni yanada samarali, qiziqarli va amaliy tarzda o‘qitishga yordam beradi.

Madaniy realiyalar orqali ingliz tili leksikasini o‘rgatish jarayoni til o‘rgatishda muhim va samarali yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarga tilni faqat grammatik va leksik jihatdan emas, balki uning madaniy kontekstida ham tushunishga imkon yaratadi. Lingvomadaniy yondashuv orqali ingliz tilini o‘rganish, o‘quvchilarni boshqa madaniyatlar bilan tanishtiradi, ularni tilni ishlatishda yanada aniqroq va maqsadga yo‘naltirilgan qila oladi. Madaniy realiyalarni ingliz tili darslariga integratsiyalash nafaqat so‘zlarning ma’nosini o‘rganish, balki ularga madaniy, ijtimoiy va tarixiy ahamiyatini tushuntirish imkoniyatini beradi.

Bunday yondashuv, o‘quvchilarga tilni yengil va samarali o‘rganish imkonini yaratadi, chunki ular tilni nafaqat muloqot vositasi sifatida, balki ingliz madaniyati va uning turli qatlamlarini ifodalovchi asar sifatida ham qabul qiladilar. Madaniy realiyalarni o‘rgatish orqali o‘quvchilar ingliz tilidagi iboralarning kontekstual ahamiyatini yaxshiroq anglashadi va bu ularga tilni yanada erkin va to‘g‘ri qo‘llash imkonini beradi.

Shuningdek, lingvomadaniy yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilarda dunyoqarashning kengayishi, madaniyatlararo farqlarni tushunish va ularga hurmat bilan qarash hissi shakllanadi. Madaniy realiyalarni ingliz tiliga integratsiyalashning eng katta afzalliklaridan biri, bu o‘quvchilarni faqat til o‘rganish jarayonida emas, balki butun dunyo madaniyatiga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, bunday yondashuvda ba'zi qiyinchiliklar ham mavjud, masalan, madaniy tafovutlar yoki o‘quvchilarning ba'zi iboralarni tushunmasliklari. Biroq, bularni yengish uchun to‘g‘ri metodikalar va didaktik yondashuvlarni qo‘llash orqali madaniy realiyalarni ingliz tiliga o‘rgatish jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, madaniy realiyalar orqali ingliz tili leksikasini o‘rgatish, o‘quvchilarga yanada kengroq va chuqurroq til bilimlarini taqdim etadi, ularning madaniy tafakkurini rivojlantiradi va global miqyosda muvaffaqiyatli kommunikatsiya o‘rnatishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimov X. Lingvistik madaniyat va tarjima (p. 126-130). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. -2015.
2. Yo‘ldosheva D. O‘zbek tilida madaniyat va til o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti. -2012.
3. Shamsiyeva M. Ingliz tilida madaniy realiyalarni o‘rgatishning metodik yondashuvlari. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti. -2018.
4. Karimov A. Xorijiy tillarni o‘rgatishda lingvomadaniy yondashuvlar. Toshkent: O‘zbekiston ta’limi va innovatsion texnologiyalar. 2017.
5. Cook V. (2003). Introduction to linguistics. Routledge.
6. Thornbury S. An A-Z of ELT: A dictionary of terms and concepts in English language teaching. Macmillan Education. 2006.
7. Johnson K. An introduction to foreign language learning and teaching. Pearson Education. 2001.
8. Wardhaugh, R. An introduction to sociolinguistics. Blackwell Publishing. -2006.
9. Baker, W. Intercultural awareness and intercultural communication in ELT: What do we know and what do we need to know? Language Teaching, 44(4), 2011. 445–467.

PRAGMATICS IN TRANSLATION: BALANCING LITERALISM AND COMMUNICATIVE EFFECT

Madaminova Kunduz Alimbayevna
Urgench State University 2nd year phd student
Phone number : +998907257868
m.qunduz.1991@gmail.com

Annotation: This research explores the importance of pragmatics in translation, focusing on the relationship between word meanings and clear communication. Translators often lose crucial nuances in the process of literal translation. Cultural-specific expressions can present significant challenges during translation.Moreover, maintaining the tone of the language is emphasized as essential. If a message is not conveyed in the proper context, its meaning may be lost. The study analyzes various texts, demonstrating that integrating pragmatic knowledge can enhance translation quality.

Keywords: *Pragmatics, translation, literal meaning, communicative effectiveness, cultural context, idiomatic expressions, translation strategies, meaning adaptation, cross-cultural communication, translator’s choices*

Introduction: Translation, in its essence, transcends the simplistic act of lexical substitution; it is, rather, a deeply intricate and intellectually demanding hermeneutic endeavor that necessitates a profound and nuanced understanding of semantic intricacies, communicative intentionality, and the multifaceted socio-cultural contexts that inextricably shape meaning-making. While a robust command

Izohli tarjima: Madaniy birliklarni tushuntirish uchun qo'shimcha izohlar berish. Bu usul, ayniqsa, til o'rtasidagi farqlar katta bo'lgan hollarda samarali.

Madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlar, tilshunoslikda katta o'rin tutadi. Madaniyatdagi qadriyatlar, urf-odatlar, ijtimoiy normalar va evenilar ko'pincha tilga aks etadi. Tarjima jarayonida bu tafovutlarni tushunish va e'tiborga olish zarur. Tarjimon faqatgina til bilimiga ega bo'lishi yetarli emas, balki madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni bilish va ularga mos ravishda yondoshuvni topish ham muhimdir.

Pragmatika - bu tilning ijtimoiy, muloqotdagi va kontekstual xususiyatlarini o'rganadi. Madaniy pragmatik birliklar faqat tilning grammatik qoidalariga bog'liq emas, balki ularga qarab ularning kontekstdagi qo'llanilishi ham farqlanadi. Shunday qilib, tarjimon tilni qanday ishlatishni, qaysi kontekstda nima maqsadda ishlatilganini tushunishi kerak. Bu esa tarjimadagi noaniqliklarni kamaytiradi va adekvat tarjimani ta'minlaydi.

Madaniy pragmatik birliklarni tarjimaga kiritish, tilshunoslikda murakkab va ko'plab omillarni hisobga olishni talab qiladigan jarayondir. Tarjimon madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni tushunishi va ushbu birliklarni to'g'ri va aniq tarzda tarjima qilish uchun turli metod va yondashuvlarni qo'llashi kerak. Madaniy pragmatik birliklarning adekvat tarjimasi, faqatgina til bilimiga emas, balki madaniy va ijtimoiy kontekstni chuqur tushunishga ham bog'liqdir [3].

Xulosa qismi: Madaniy pragmatik birliklar va ularning adekvat tarjimasi muammolari, tilshunoslikda eng murakkab va ko'plab o'zgaruvchan masalalardan biri hisoblanadi. Tarjima jarayonida, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi, madaniy tafovutlar va pragmatik xususiyatlar muhim rol o'ynaydi. Madaniy pragmatik birliklar nafaqat so'zlarning o'zi, balki ularning ma'nosi, ishlatilishi va konteksti bilan bog'liq bo'lib, bu birliklarning to'g'ri va aniq tarjimasi uchun tarjimon madaniyatlarni, ijtimoiy va pragmatik xususiyatlarni chuqur tushunishi zarur.

Tarjimada uchraydigan asosiy qiyinchiliklar madaniy farqlar, leksik moslikning yo'qligi va kontekstual tafovutlar bilan bog'liqdir. Bu muammolarni samarali hal qilish uchun tarjimonlar turli usullarni qo'llashlari mumkin: ekvivalentlik, adaptatsiya, transliteratsiya va izohli tarjima kabi metodlar madaniy birliklarni to'g'ri ifodalashda yordam beradi.

Madaniy pragmatik birliklarning tarjimadagi roli, tilshunoslik va madaniyatshunoslikni birlashtiradi va tilni o'zgartirishdan ko'ra, uning asl ma'nosini va ahamiyatini saqlab qolish uchun qo'llaniladi. Shunday qilib, madaniy pragmatik birliklarning adekvat tarjimasi - bu nafaqat tilning o'zini, balki uning orqasidagi madaniy, ijtimoiy va pragmatik qatlamlarini ham hisobga olishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Tarjimadagi muvaffaqiyat bu jarayonda madaniy tafovutlarni chuqur anglash, tillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni va pragmatik yondashuvlarni to'g'ri qo'llashga bog'liqdir.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Shahlo Akmalovna Alimbayeva and Malika Mexriddinovna Xusamiddinova, “ONLAYN MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL QILISHNING ILMIY-USLUBIY MASALALARI”, *scientific*, vol. 56, no. 1, pp. 143–146, Apr. 2024.
2. Baker, M. (1992). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.
3. Nida, E. A. & Taber, C. R. (1969). The Theory and Practice of Translation. Brill.
4. Hatim, B., & Mason, I. (1990). Discourse and the Translator. Longman.
5. House, J. (2009). Translation: A Multidisciplinary Approach. Palgrave Macmillan.
6. Biel, Ł. (2016). Translation and Interpreting in the Digital Age. Cambridge Scholars Publishing.
7. Katan, D. (2014). Translation as Intercultural Communication. Routledge.
8. Malika Mexriddinovna Xusamiddinova. PRAGMATIC FACTORS AND THEIR ROLE IN TRANSLATION. (2025). *International Journal of Artificial Intelligence*, *5*(01), 774-778.
9. Isamiddinova Lola Ibragimdjanovna, Imamova Gulchexra Zoirovna, Xusamiddinova Malika Mexriddinovna, Alimbayeva Shaxlo Akmalovna, Gataulina Gulnara Aliaskarovna (2023). Theoretical And Practical Aspects Of Creating Virtual Resources Based On Simulation Models In Foreign Language Classes. Journal for Educators, Teachers and Trainers, Vol. 14(3). 552-557. [DOI: 10.47750/jett.2023.14.03.067]

MUHAMMAD AL-HATTOBNING "TARJIMA VA MADANIYAT ARAB MATNLARIDA"ASARIDA MADANIY YONDASHUVLARNING TARJIMASHUNOSLIKDAGI O‘RNI

Sattorova Oqila Shabon qizi
O`qituvchi-stajyori
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O`zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada Muhammad Abdulmon’im al-Hattobning *“Translation and Culture in the Arab Context”* nomli fundamental asari asosida tarjima va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Asarda ilgari surilgan asosiy g‘oyalar – tarjimonning madaniy kompetensiyasi, madaniyatlararo tafovutlarni tarjimada adekvat aks ettirish yo‘llari, arab madaniy konteksti va tarjima jarayonidagi strategik yondashuvlar tahlil qilinadi. Tarjimashunoslik nazariyasi doirasida bu asarning o‘rni, dolzarbligi va amaliy ahamiyati aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *tarjimashunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya, arab tili, madaniyat tafovuti, tarjima strategiyalari, madaniy kompetensiya*

Abstract: This article examines the relationship between translation and culture from a scientific perspective based on Muhammad Abdulmon'im al-Khattab's fundamental work "Translation and Culture in the Arab Context". The main ideas put forward in the work - the cultural competence of the translator, ways to adequately reflect intercultural differences in translation, the Arab cultural context and strategic approaches in the translation process - are analyzed. The place,

relevance and practical significance of this work within the framework of translation studies theory are determined.

Keywords: *translation studies, intercultural communication, Arabic language, cultural difference, translation strategies, cultural competence*

Абстракт: В данной статье рассматривается взаимосвязь между переводом и культурой с научной точки зрения на основе фундаментального труда Мухаммада Абдулмонима аль-Хаттаба «Перевод и культура в арабском контексте». Основными идеями, выдвинутыми в работе, являются культурная компетентность переводчика, способы адекватного отражения межкультурных различий в переводе, арабский культурный контекст, стратегические подходы в процессе перевода. Определены место, актуальность и практическая значимость данной работы в рамках теории переводоведения.

Ключевые слова: *переводоведение, межкультурная коммуникация, арабский язык, культурные различия, стратегии перевода, культурная компетентность*

Kirish qismi: Tarjimashunoslik sohasi globallashuv davrida nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki madaniy anglashni ham talab etuvchi fanlararo soha sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, arab tili kabi chuqur diniy, tarixiy va madaniy qatlamlarga ega tillarda tarjima faoliyati ko‘p bosqichli jarayonni o‘z ichiga oladi. Muhammad Abdulmon’im al-Hattobning *“Translation and Culture in the Arab Context”* asari zamonaviy tarjimashunoslikda madaniyatlararo tafovutlarga yo‘naltirilgan nazariy yondashuvlarning yetuk namunasi hisoblanadi. Asarda tarjima jarayonida madaniyatning o‘rni, tarjimonda zarur bo‘lgan madaniy kompetensiyalar, madaniy realiyalarni tarjimada aks ettirish usullari va arab kontekstining o‘ziga xos jihatlari atroflicha ochib berilgan.

Asosiy qism: Muhammad Abdulmon’im al-Hattob — arab tarjimashunosligi va madaniyatlararo kommunikatsiya sohasida tanilgan zamonaviy olim. U Al-Azhar universitetida tarjimashunoslik bo‘yicha ilmiy faoliyat olib borgan va bu sohada bir qator muhim asarlar yaratgan. Uning *“Translation and Culture in the Arab Context”* (2019) asari arab tilidagi tarjima jarayonining madaniy jihatlarini chuqur tahlil etadi.

Al-Hattob asarida tarjimani faqat til o‘zgarishi emas, balki madaniyatlararo muloqot sifatida ko‘rib chiqadi va tarjimonda madaniy kontekstning ahamiyatini ta’kidlaydi. U, tarjimonda madaniy realiyalarni to‘g‘ri aks ettirish uchun moslashtirish, ekvivalent izlash, izohli tarjima kabi strategiyalarni taklif etadi. Shuningdek, tarjimondan talab qilinadigan madaniy kompetensiyalarni yoritadi.

Al-Hattobning ilmiy faoliyati arab tarjimashunosligida muhim o‘rin tutadi va uning asarlari bu sohada ilmiy tadqiqotlar uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Al-Hattob o‘z asarida tarjimani faqat tilshunoslik doirasida emas, balki madaniy jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. U tarjimani “kulturoloji vositachilik” deb atab, tarjimonni ikki madaniyat o‘rtasida muloqot tashkil etuvchi mediator sifatida talqin qiladi. Uning fikricha:“Tarjima – bu ikki tilda emas, ikki madaniyatda fikrlay olish san’atidir.”Bu yondashuv Lotman, Nida, Venuti, Baker singari tarjima nazariyotchilarining fikrlariga hamohangdir. Al-Hattobning asosiy g‘oyasi shundan

iboratki, har bir til o‘z madaniy xotirasiga egadir, va tarjimon bu xotirani to‘g‘ri anglab, uni boshqa madaniyatga mos ravishda ifodalashi kerak.

Arab tilida madaniy yuklama kuchli bo‘lgan so‘zlar va iboralar ko‘p uchraydi. Al-Hattob arab tilining quyidagi jihatlarini tarjima jarayonida e’tiborga olish lozimligini ta’kidlaydi: Quyida ushbu asardan olingan ba'zi dolzarb misollarni arab tilida keltiraman: Al-Hattob asarida diniy matnlarning tarjimasi, ayniqsa Qur’on va hadislarning tarjimasi masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Diniy matnlarni tarjima qilishda madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olish zarur ekani takidlaydi.

Masalan:"الصلواة خيرٌ من النوم" (as-salāh khayrun min an-nawm)

Tarjimasi: "Namoz uxlagandan yaxshiroqdir."

Bu misolda, "الصلاة" (as-salāh) va "النوم" (an-nawm) kabi so‘zlar nafaqat ma’no, balki madaniy kontekstda ham juda ahamiyatlidir. Tarjimada bu madaniy nuqtalarni hisobga olish kerak.

Arab madaniyatida ba’zi ijtimoiy iboralar va adabiyotda ishlatilgan so‘zlar, boshqa madaniyatlarda turlicha talqin qilinadi. Al-Hattobning yondashuvi bu tafovutlarni tarjimaga yondashishda hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Masalan:"العين بالعين" (al-‘ayn bi-al-‘ayn)

Tarjimasi: "Ko‘z ko‘zga, tish tishga" (ya'ni, "qasos qilish").

Bu ibora arab madaniyatida o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, boshqa madaniyatlarda ko‘pincha "qasos" ma’nosida ishlatiladi. Ammo ba’zi madaniyatlarda bu ibora salbiy yoki tahdid sifatida qabul qilinishi mumkin. Tarjimada bu ijtimoiy nuanslarni hisobga olish zarur.

Arab adabiyati va an'analari ko‘pincha boshqa madaniyatlarda qiyin tarjima qilinadi, chunki ular o‘ziga xos konnotatsiyalarga ega.

Masalan:"الخيول لا تلد إلا الجياد" (al-khuyūl lā talid illā al-jiyād)

Tarjimasi: "Otlar faqat yaxshi otlarni tug‘diradi."

Bu misol arab madaniyatida ulug‘lanadigan otlar va ularning rolini ko‘rsatadi. Bu ibora, bir tomondan, odatda muvaffaqiyat va mehnatning natijasini anglatadi. Boshqa madaniyatlarda esa bu iboraning to‘liq ma’nosini anglash qiyin bo‘lishi mumkin. Tarjimon bu kontekstni yaxshi tushunishi va tarjima jarayonida aynan shu madaniy jihatni hisobga olishi zarur.

Arab tilidagi ba'zi so‘zlar yoki iboralar faqat arab madaniyatiga xos bo‘lib, boshqa tillarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

"الفول المدمس" (al-fūl al-mudammas)

Tarjimasi: "Foul" (yoki "boshqa turdagi dukkakli o‘simlik" deb tarjima qilish mumkin).

Bu so‘z arab madaniyatida mashhur bo‘lgan an'anaviy taomni ifodalaydi. Boshqa madaniyatlarda uning o‘zi yoki aynan shu atama mavjud bo‘lmasligi mumkin, shuning uchun tarjimon aniq madaniy kontekstni tushunib, moslashtirilgan tarjima qilish zarur.

Tarjima jarayonida tarixiy yoki madaniy ma’nolarning o‘zgarishi ham muhim ahamiyatga ega. Al-Hattob bunday misollarda madaniy moslashtirishning muhimligini ta’kidlaydi.

Masalan:"ما خاب من استشار" (mā khāba man ishtashār)

Tarjimasi: "Maslahat so‘ragan kishi xato qilmaydi."

Bu ibora, arab madaniyatida maslahat olishning ahamiyatini ifodalaydi. Boshqa madaniyatlarda esa bu ibora o‘xshash qabul qilinishi mumkin, ammo tarjimonning bu iboraning tarixiy va madaniy ma'nosini tushunishi va to‘g‘ri yetkazishi zarur.

Al-Hattobning asarida keltirilgan bunday misollar, tarjimashunoslikda madaniy kontekstning qanchalik ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Bu misollar arab tilidagi matnlarning tarjimasi jarayonida madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olish zarurligini isbotlaydi va tarjimonlardan chuqur madaniy kompetensiyani talab qiladi.

Al-Hattobning yondashuviga ko‘ra, tarjimon bu singari birliklarni madaniy jihatdan moslashtirish orqali o‘quvchiga tushunarli va madaniy jihatdan adekvat tarjima taqdim etishi kerak. Muallif tarjimonlar uchun bir nechta strategik yondashuvlarni taklif etadi:

Strategiya nomi	**Mazmuni**
Adaptatsiya	Madaniy birlikni boshqa madaniyatdagi o‘xshash tushuncha bilan almashtirish.
Izoh bilan tarjima	Madaniy birlikni o‘z holicha tarjima qilib, qo‘shimcha izoh keltirish.
Generalizatsiya	Maxsus madaniy tushunchani umumiy tushunchaga aylantirish.
Transliteratsiya	So‘z shaklini asliga yaqin holda o‘quvchiga yetkazish.

Bugungi globallashuv sharoitida madaniy jihatdan sezgir tarjima, ayniqsa, diplomatik, siyosiy, diniy va adabiy matnlar tarjimasida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Al-Hattobning modeli bu borada quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- Madaniyatlararo mojarolarning oldini olish.
- Tarjima orqali madaniy qadriyatlarni tushunarli yetkazish.
- Tarjimani faqat ma’noni o‘tkazuvchi emas, balki madaniyatni ifodalovchi vosita sifatida ko‘rish.

Muhammad Abdulmon’im al-Hattobning *“Translation and Culture in the Arab Context”* asari zamonaviy tarjimashunoslikda madaniyat omilining markaziy o‘rinni egallashini asoslovchi muhim ilmiy manba sifatida e’tirof etiladi. Al-Hattob tarjimani faqat til o‘zgargan bir jarayon sifatida emas, balki madaniyatlararo kommunikatsiya va muloqot sifatida ko‘rib chiqadi. Asarda, tarjimonning madaniy anglash qobiliyati va madaniyatlararo farqlarni his etish qobiliyati alohida ta’kidlanadi, bu esa tarjima jarayonining samarali bo‘lishi uchun zarur shartdir.

Muallif ilgari surgan nazariy tamoyillar, strategiyalar va amaliy tavsiyalar tarjima jarayonida madaniy sezuvchanlikni ta’minlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Tarjimashunoslikda madaniy elementlarni inobatga olish, ayniqsa, arab tilidagi diniy, adabiy va ijtimoiy matnlar tarjimasida alohida dolzarbdir. Chunki bu matnlar o‘ziga xos madaniy konnotatsiyalarga, diniy talqinlarga, tarixiy asoslarga ega bo‘lib, ular faqat lingvistik ekvivalentlar bilan ifodalanmaydi. Al-Hattobning

yondashuvi ushbu matnlarni tarjima qilishda madaniyatni saqlab qolish va maqsadli auditoriyaga tushunarli yetkazish muhimligini ta’kidlaydi.

Al-Hattobning taklif etgan tarjima strategiyalari, jumladan, adaptatsiya, izohli tarjima va ekvivalent izlash kabi metodlar madaniy tafovutlarni yengib o‘tish, o‘quvchi uchun ma’no va mazmunni aniq yetkazish imkoniyatini yaratadi. Tarjimonda madaniy tafovutlarni yengib o‘tish uchun tarjimonlar, nafaqat til, balki madaniyatlararo kompetensiyaga ham ega bo‘lishlari kerak. Bu esa tarjimashunosning faqat texnik bilimlarga ega bo‘lishini emas, balki madaniy anglashuvga ham ega bo‘lishini talab qiladi.

Muhammad al-Hattobning nazariyasi, ayniqsa, arab tilidagi matnlarni tarjima qilishda o‘zining amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi. Tarjima nafaqat muloqot vositasi, balki bir madaniyatni boshqasiga o‘rgatish va tushuntirish vositasi sifatida qaraladi. Shunday qilib, Al-Hattobning asari zamonaviy tarjimashunoslikda madaniyatlararo muloqotning muhimligini va tarjimashunosning madaniy kompetensiyasini mustahkamlash zarurligini chuqur tahlil qiladi.

Shuningdek, ushbu asar nafaqat arab tilidagi matnlar, balki boshqa madaniy kontekstdagi tarjimalarda ham qo‘llaniladigan amaliy yondashuvlarni taklif etadi. Tarjimada faqat tilning o‘zgarishi emas, balki madaniyatlarning o‘zaro ta’siri, ularning tafovutlari va umumiyliklari ham hisobga olinishi kerakligini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv tarjima nazariyasini yanada rivojlantirish va global madaniyatlararo anglashuvni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad al-Hattobning *“Translation and Culture in the Arab Context”* asari zamonaviy tarjimashunoslikda madaniyatlarning tarjimadagi o‘rni va ahamiyatini qayta ko‘rib chiqishda muhim hissa qo‘shadi. Bu asar tarjimashunoslar uchun amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi va tarjima jarayonida madaniy sezuvchanlikni ta’minlashda, shuningdek, madaniyatlararo tafovutlarni yengib o‘tishda qo‘l keladigan strategik yondashuvlarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Al-Hattob, M. A. (2019). *Translation and Culture in the Arab Context*. Cairo: Al-Azhar University Press.
2. Baker, M. (2018). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
3. Al-Khaja, K. (2010). *The Role of Translation in Arab Literature*. The Arab World Journal of Translation, 5(2), 34-47.
4. Kassis, H. (2005). *Arabic-English-Arabic Translation: Issues and Strategies*. International Journal of Arabic-English Studies, 6(1), 12-25.
5. Abdul-Raof, H. (2001). *Translation and Language Teaching: Language Teaching in the Arab World*. Routledge.

6.الخاجة، ك. (2010). دور الترجمة في الأدب العربي. مجلة العالم العربي للترجمة، 5(2)، 34-47

7 قاسم، ح. (2005). الترجمة من العربية إلى الإنجليزية: القضايا والاستراتيجيات. مجلة الدراسات العربية-الإنجليزية، 6(1)، 25-12.

EUPHEMISMS AS A REFLECTION OF SOCIAL ROLES: WOMEN'S SPEECH AS AN EXAMPLE (BASED ON MAY ALCOTT'S LITTLE WOMEN)

Hayotxon Ma'rufjonovna Shernazarova
Lecturer, Tashkent State University of Oriental Studies

Abstract: This article examines the use of euphemisms in women's speech and their analysis, along with the social function that women play in society and the close relationship that exists between euphemisms and women. The subject is further examined by examining the speech of characters in May Alcott's "Little Women" to reveal how language was used to convey the social standing, cultural standards, and behavioral expectations of women in the 19th century. Through the speech of the novel’s female characters, the paper highlights how euphemisms serve as markers of politeness, modesty, and emotional restraint—qualities traditionally associated with femininity.

Key words: *Euphemisms, "Little Women", women's speech*

Introduction: Euphemisms are the act of substituting softer, more acceptable terms for unpleasant, incorrect, or socially unacceptable thoughts; they are a reflection of societal norms and cultural standards. Language is an essential component of human thought, society, and culture. Women's language is even more replete with euphemistic terms, which is indicative of their social standing and the speech conventions that are expected of them. The book "Little Women" by May Alcott is a valuable resource in this context. Euphemisms are not only language phenomena, but also units of speech that are tightly linked to social consciousness, gender stereotypes, and cultural norms. World literature frequently reflects women's desire to convey moral, ethical, physical, and emotional issues in a gentler, more socially acceptable manner. This is explained by their social position as "decency" and "femininity." The use of euphemisms in women's discourse in Louisa May Alcott's "Little Women" novel demonstrates how language reflects social positions. The idioms and words used in the discourse of four sisters with distinct personalities and personal attributes—Meg, Jo, Beth, and Amy—are at the focus of the analysis of the euphemisms employed in the work. Euphemistic terms that represent the sociocultural standards of their era are also used to enhance their speech in their talks with one another.

Topics like death, disease, poverty, romantic feelings, and female body are not explicitly, freely, and directly expressed by the expressions and speech units employed in the work; instead, they are expressed in a soft, feminine, cultured, and more socially acceptable manner. This enables the reader to observe how it reflects the cultural and moral expectations that were placed on women's speech in American society during the 19th century. For instance, their language was also impacted by the prevailing social norm that women should be sensitive, kind, and mild.

For instance, rather than using the terms "death" or "died," the author of this work employs euphemistic phrases like "passed away" and "gone to a better place" when discussing death. The use of euphemisms in language, on the other hand, subtly reveals the lovely aspects of human discourse, including the culture of communication. This softens speech and provides a form of cultural and religious solace. Expressions like "weakness," "delicate health," and "not feeling well" are used when someone is ill. This softens the conversation between people and prevents health issues from being fully discussed, portraying women as reliant and frail.

In contrast to the aforementioned analysis, euphemisms are frequently and extensively employed in speech to convey amorous emotions. Soft terms like "fondness," "affections," and "feelings," for instance, are frequently utilized in the work to convey feelings of love, attraction, or sexuality. These phrases are particularly prevalent in the discourse of characters like Amy and Meg, indicating that they are more in keeping with societal norms.

Jo March's personality deviates slightly from these broad guidelines, though. Jo is shown as a free-spirited person who refuses to fit into the stereotypically feminine role and tries to voice her opinions honestly. Her speech contains less euphemisms, demonstrating how social conventions and human nature and upbringing frequently influence the usage of such terms in our society. For instance, she frequently discusses particular subjects in a straightforward, even masculine, way. The author is attempting to use words to depict Joe outside of the societal "framework" here. Joe's sparse usage of euphemisms demonstrates her independence and feminist stance. Therefore, the novel "Little Women"'s euphemistic discourse, particularly through the representations of women, enables a thorough examination of gender stereotypes, cultural values, and social thought from the 19th century. This demonstrates once more that euphemisms are a socially conscious phenomenon in addition to being a language unit.

The study of women's speech linguistic traits uses euphemisms as a socio-cultural indicator. Euphemistic inclinations in women's language are a crucial instrument in illustrating their cultural profile, especially in the context of 19th-century literature. Women were viewed as possessing more "feminine" traits in this era's society, such as decency, devotion, obedience, softness, and femininity. As a result, they favored softer, more culturally acceptable types of speech over rude, sharp, or direct sentiments.

For example, in the novel "Little Women", the phrases "she is not well", "she's gone to rest", "he cares for her deeply" that come out of the mouths of the characters actually express much more serious and profound socio-psychological situations, but such expressions are given not directly, but in a euphemistic way. The main reason for this is the preservation of feminine speech etiquette, as well as the preservation of the "feminine" style of language expected of women by society.

Thus, euphemisms are an important source for portraying women not only from a linguistic perspective, but also within the framework of cultural studies and gender studies. Through them, we gain a deeper understanding of the stereotypes, moral norms, and cultural pressures of what a woman “should” be at that time. This,

in turn, provides a foundation for analyzing the continuing traces of euphemistic expressions in modern women's language.

The use of euphemisms in speech is still necessary even if women's status in society has significantly improved under contemporary sociopolitical circumstances. On the one hand, this situation shows that moral ideals and cultural continuity have been preserved, but on the other hand, it is a result of the continued existence of societal constraints and cultural censorship on women's speech.

The use of euphemisms in speech is still necessary even if women's status in society has significantly improved under contemporary sociopolitical circumstances. On the one hand, this situation shows that moral ideals and cultural continuity have been preserved, but on the other hand, it is a result of the continued existence of societal constraints and cultural censorship on women's speech.

These euphemisms are comparable to the way women in Alcott's 19th century discourse softened and obliquely expressed challenging subjects. However, social networks, the media, and popular culture frequently push modern women to do this. Consequently, euphemisms function as a communication tactic in addition to being a moral or cultural requirement.

At the same time, there is a tendency among modern women to abandon euphemisms. Especially in a cultural context where feminist ideas are widespread, a style of speech is emerging that calls for the open and direct expression of every aspect of women's lives. This phenomenon indicates a gradual decrease in the level of social pressure and censorship on women's language.

Euphemisms are therefore still used in contemporary women's speech as a cultural legacy, a personal social strategy, a form of self-defense, and a means of securing social acceptance. In this sense, the cultural "gentleness" that was ingrained in contemporary communication patterns from the language of women in Alcott's day endures.

In conclusion: In addition to linguistics, euphemisms in women's speech are a significant subject of study for disciplines like social psychology, gender studies, and cultural studies. Through the use of euphemism terms, Louisa May Alcott's novel "Little Women" illustrates the social role, psychological state, and attitude toward cultural ideals of women in the 19th century. Through their speech, Meg, Jo, Beth, and Amy all convey a distinct social and cultural stance. Specifically, the linguistic level also reflects the rejection of the image of Jo by the image of euphemisms.

According to research, women's language contains euphemisms, which allow for the soft and appropriate expression of delicate, nuanced, and occasionally socially unacceptable subjects within the context of conversation. This demonstrates the transference from culture to language of moral standards, feminine conduct, and the need to fit in.

Even if euphemisms are still used in contemporary women's discourse, their shape and frequency have changed. This shift has an impact on language as well because modern women aim to think more honestly and openly. Euphemism,

however, continues to play a significant role in women's speech as a tool for social adaptation and communication culture.

References

1. Alcott, L. M. (1868). Little Women. Boston: Roberts Brothers.
2. Crystal, D. (2008). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
3. Holmes, J. (2001). An Introduction to Sociolinguistics. Longman.
4. Lakoff, R. (1975). Language and Woman's Place. Harper & Row.
5. Tannen, D. (1990). You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. William Morrow and Company.
6. Stubbs, M. (1996). Text and Corpus Analysis: Computer-assisted Studies of Language and Culture. Blackwell.
7. Cameron, D. (2003). Gender and Language: An Introduction. Polity Press.
8. Kachru, B. B. (1992). The Other Tongue: English Across Cultures. University of Illinois Press.
9. Sifianou, M. (1992). The Politeness Phenomenon. Oxford University Press.
10. Holmes, J., & Meyerhoff, M. (2003). The Handbook of Language and Gender. Blackwell Publishing.

FORS ADABIYOTIDA TASAVVUFIY MOTIVLAR VA ULARNING O‘ZBEK ADABIYOTI BILAN MUSHTARAK JIHATLARI

Shamuradova Sevar Ilyosovna
Katta o‘qituvchi, Mirzo Ulugbek nomidagi Uzbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada fors adabiyotida keng o‘rin egallagan tasavvufiy motivlarning badiiy ifodasi va ularning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Xususan, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Sa’diy, Attor kabi mashhur mutasavvif shoirlarning asarlarida ifoda topgan ilohiy ishq, haqiqat izlash, nafsni poklash kabi g‘oyalar sharhlanadi. Shuningdek, ushbu motivlarning o‘zbek adabiyotidagi aks sadosi, xususan, Alisher Navoiy ijodidagi o‘xshashlik va o‘zaro ta’sirlar ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *fors adabiyoti, tasavvuf, ilohiy ishq, Rumiy, Hofiz, Navoiy, haqiqat, nafs, mushtaraklik, g‘oyaviy o‘xshashlik, adabiy ta’sir*

Абстракт: В статье анализируется художественное выражение и сущность мистических мотивов, распространенных в персидской литературе. В частности, обсуждаются такие идеи, как божественная любовь, поиск истины и очищение души, выраженные в произведениях известных суфийских поэтов, таких как Джалалуддин Руми, Хафиз Ширази, Саади и Аттар. Также будет проанализировано отголоски этих мотивов в узбекской литературе, в частности сходства и взаимодействия в творчестве Алишера Навои.

Ключевые слова: *персидская литература, суфизм, божественная любовь, Руми, Хафиз, Навои, истина, страсть, общность, идейное сходство, литературное влияние*

Abstract: This article analyzes the artistic expression of mystical motifs that are widespread in Persian literature and their content. In particular, the ideas of divine love, the search for truth, and the purification of the soul, which are expressed

in the works of famous mystical poets such as Jalaluddin Rumi, Hafiz Shirozi, Sa'di, and Attar, are commented on. The echo of these motifs in Uzbek literature, in particular, the similarities and mutual influences in the work of Alisher Navoi, are also analyzed.

Keywords: *Persian literature, mysticism, divine love, Rumi, Hafiz, Navoi, truth, soul, commonality, ideological similarity, literary influence*

Kirish: Fors adabiyoti - Sharq mumtoz adabiyotining eng yirik va chuqur ildizlarga ega bo‘lgan tarmoqlaridan biridir. Uning shakllanishida tasavvuf — ya’ni ruhiy kamolot, ilohiy ishqqa yetishish va nafsni yengish g‘oyalari muhim o‘rin tutgan. Tasavvufiy adabiyot nafaqat diniy-falsafiy mazmunga, balki chuqur badiiy-estetik qamrovga ham ega bo‘lib, xalqlarning ruhiy-ma’naviy hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Fors tilida ijod qilgan mutasavvif shoirlar - Jaloliddin Rumiy, Farididdin Attor, Hofiz Sheroziy, Sa’diy Sheroziy va boshqalar o‘z asarlarida inson qalbidagi ichki kurash, ma’naviy poklanish, ilohiy ishq orqali komillikka intilish g‘oyalarini ilgari surganlar. Ularning ijodi o‘zbek mumtoz adabiyotiga, ayniqsa Alisher Navoiyga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Mazkur maqolada ana shu tasavvufiy motivlarning badiiy ifodasi va g‘oyaviy mazmuni hamda fors va o‘zbek adabiyotidagi mushtarak jihatlar tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Fors adabiyotida tasavvufiy g‘oyalarning shakllanishi

Tasavvuf IX–X asrlarda islomiy olamda ruhiy va falsafiy oqim sifatida shakllandi. Fors adabiyotida bu g‘oyalar avvaliga diniy axloqiy nasihatlar orqali, keyinchalik esa g‘azal, ruboiy, masnaviy singari badiiy shakllarda ifodalanadi. Ayniqsa, Farididdin Attorning *"Mantiq ut-tayr"* asarida qushlar orqali nafs, qalb, ruh, ishq, o‘zlikni inkor qilish kabi tasavvufiy tushunchalar timsollar orqali ifodalangan. Bu asar tasavvuf falsafasining badiiy namunasi sifatida Sharq adabiyoti uchun o‘ta muhimdir.

Jaloliddin Rumiy va ilohiy ishq konsepti

Rumiyning *"Masnaviy Ma’naviy"* asari dunyo tasavvufiy adabiyotining durdonasi hisoblanadi. Unda ilohiy ishq — insonning Ollohga nisbatan cheksiz muhabbati, dunyoviy ishqdan voz kechish orqali haqiqat sari intilish asosiy g‘oya sifatida ilgari suriladi. Rumiy tilida yozilgan ruboiylar va hikmatlarda ko‘pincha “ma’shuq”, “sharob”, “mayxona”, “saki” kabi ramziy tushunchalar orqali ilohiy mohiyat ifoda etiladi [2].

Jaloliddin Rumiy asarlarida ishq — bu oddiy tuyg‘u emas, balki mavjudotning harakatlantiruvchi kuchidir. “Masnaviy Ma’naviy” asarida u shunday deydi:

“Ishqdir - olamni harakatga keltirgan.”

(*Rumiy, “Masnaviy”*)

Rumiyga ko‘ra, inson Ollohdan uzoqlashgan va ishq uni Yaratganga qaytaruvchi vositadir. Rumiy asarlaridagi sharob, mayxona, saki kabi tasvirlar ramziy bo‘lib, ular ilohiy zavq, qalb ochilishi va ruhiy hushyorlikni anglatadi. Bunday obrazlar o‘zbek adabiyotiga ham chuqur kirib kelgan.

Hofiz Sheroziy – ishq va ichki kechinmalar shoir

Hofiz asarlarida ilohiy ishq bilan birga, insoniy tuyg‘ular, dard, ayriliq, ruhiy iztirob ham nazokat bilan ifodalanadi. Uning g‘azallari chuqur ramziy ma’noga ega bo‘lib, sharob - ilhom, mayxona - qalb, saki - Haq deb talqin qilinadi. U o‘z davrida tasavvuf va dunyoviy ishqni uyg‘unlashtirgan shoir sifatida tanilgan [3].

Hofiz Sheroziy asarlarida tasavvuf bilan dunyoviylik o‘zaro uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. U shunday yozadi:

“Garchi mayxonadaman, ammo ko‘nglim Ma’budda - may menga Haq yo‘li ko‘zgusi.”

(*Hofiz, Diwan*)

Hofizda shubha, ruhiy kurash, savol-javoblar ko‘p. U Haq bilan munosabatni shaxsiy kechinma orqali ochadi. Bu metodologiya keyinchalik Navoiy g‘azallarida ham uchraydi.

Navoiy tasavvufiy g‘oyalarni o‘ziga xos badiiy falsafa bilan uyg‘unlashtirgan. Ayniqsa, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarida tasavvufiy ishqning yuksak timsollari mavjud [5]:

“Ishq — bu jondin judo bir jon erur,
Har kim ul ishqdin o‘ldi, jon erur.”

(*Navoiy, “Layli va Majnun”*)

Bu yerda Navoiy tasavvufdagi “fano” holatini ya’ni Haq yo‘lida o‘zligini yo‘qotib, haqiqiy jonga — ruhiy haqiqatga yetishni ifodalaydi.

Fors adabiyoti o‘zbek mumtoz adabiyotining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, Alisher Navoiyning “Xamsa”sida, g‘azallarida Rumiy, Attor, Hofiz kabi mutasavvif shoirlarning g‘oyalari aks etadi. Masalan, “Layli va Majnun” dostoni Majnunning ma’naviy kamolot sari yo‘li orqali tasavvufiy yo‘lni ifodalaydi. Navoiy ham ilohiy ishqni, Haqqa yetishish g‘oyasini, nafsni yengish, sabr va tavakkulni ko‘plab asarlarida ilgari suradi.

Fors va o‘zbek adabiyotidagi tasavvufiy motivlar umumiy ildizlarga ega bo‘lsa-da, ularning ifodalanishida farqlar mavjud. Fors adabiyotida obrazlar ko‘proq ramziy, dramatik va falsafiy tilda berilgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida ular ko‘proq ijtimoiy-ma’rifiy ruhda, didaktik yondashuv orqali ifodalanadi. Biroq ikkala adabiyotda ham asosiy maqsad - insonni ma’naviy yetuklik sari yetaklashdir [4].

Xulosa qism: Fors adabiyoti, ayniqsa tasavvufiy ruhdagi asarlar, Sharq madaniyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan. Rumiy, Attor, Hofiz, Sa’diy kabi mutasavvif shoirlar tomonidan ilgari surilgan ilohiy ishq, ma’naviy poklanish, nafs ustidan g‘alaba kabi g‘oyalar o‘zbek adabiyotiga, ayniqsa Alisher Navoiy merosiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan.

Mazkur maqolada ko‘rib chiqilganidek, fors va o‘zbek adabiyoti o‘rtasidagi mushtaraklik faqat adabiy shakllardagina emas, balki falsafiy-ruhiy yo‘nalishlarda ham aks etadi. Bu esa ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy-madaniy bog‘liqlikni yana bir bor isbotlaydi. Kelgusida fors adabiyotidagi tasavvufiy motivlarni yanada chuqurroq o‘rganish - Sharq badiiy tafakkurining rivojlanish tarixini to‘liq anglashga xizmat qiladi.

Fors adabiyotida shakllangan tasavvufiy motivlar - Sharq adabiy tafakkurining yuksak bosqichidir. Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy kabi ijodkorlar tasavvufni estetik, poetik va falsafiy nuqtai nazardan chuqur tahlil etganlar. Ularning g‘oyalari o‘zbek mumtoz adabiyotiga, ayniqsa Alisher Navoiy ijodiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Bu ta’sir faqat shakliy emas, balki mazmuniy, g‘oyaviy va falsafiy jihatdan chuqur mushtaraklikni ifoda etadi. Tarixiy-madaniy rishtalar natijasida ikki adabiy maktabning bir-birini boyitganini ko‘rish mumkin. Bugungi kunda ushbu adabiy merosni chuqur tadqiq etish - nafaqat adabiy tarix uchun, balki ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyot uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Attor, F. Mantiq ut-tayr. – Tehron: Zavvar Kitobxonasi, 2003.
2. Rumiy, J. Masnaviy Ma’naviy. 6 jildlik. – Tehron: Amir Kabir Nashriyoti, 1995.
3. Hofiz Sheroziy. G‘azallar devoni. – Dushanbe: Adabiyot va san’at, 1987.
4. Sa’diy Sheroziy. Guliston va Bo‘ston. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 1991.
5. Navoiy, A. Xamsa. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1996.
6. Navoiy, A. G‘azallar devoni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2010.
7. Shukurilla, U. Tasavvuf va mumtoz adabiyot. – Toshkent: Fan, 2004.
8. Salohiy, B. Sharq mumtoz adabiyotida ishq konsepti. // "Adabiyotshunoslik ilmiy jurnali", 2019, №4. – B. 45–52.
9. Sevar Ilyasovna Shomurodova. (2024). Analysis of the Research on Babur’s Heritage. Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777), 2(12), 22–24. Retrieved from https://grnjournal.us/index.php/AJLISI/article/view/6329
10. Qurbonov, M. Tasavvuf va badiiy tafakkur. – Samarqand: Samarqand Universiteti nashriyoti, 2007.
11. Lewisohn, L. The Philosophy of Ecstasy: Rumi and the Sufi Tradition. – Bloomington: World Wisdom, 2006.

UDK: 821.111; 821.512.133

LEV TOLSTOYNING ANNA KARENINA ASARIDAGI BOLALAR SHAXSIYATI

Shahobova Sitora Baxromovna,
Researcher, Tashkent State University of Oriental Studies,
E-mail: sitorashaxobova28@gmail.com

Khallieva Gulnoz Iskandarovna,
Professor, Uzbekistan State World Language University,
E-mail: gulnoz7410@mail.ru

Annotasiya: Quyidagi maqolada buyuk rus romannavisi Lev Tolstoyning Anna Karenina asaridagi bolalar qahramonlari haqida fikr va mulohazalar berilgan. Garchi kitob kata hajmda bo’lsada, yosh bolalar qahramonlari sanoqlidir, lekin ular asarning foqealar rivoji uchun asosiy ko’prik bo’la olgan. Maqolada bolalar shaxsiyati,oila va jamiyatning bola psixologiyasiga ta’siri Anna Karenina romanidagi bolalar orqali ko’rsatib bergan.

Kalit so’zlar: *bola, qahramon, shaxsiyat, oila, ota-ona, jamiyat, xiyonat, bolalik*

Annotatsiya: В данной статье представлены мысли и размышления о детских персонажах в произведении великого русского романиста Льва Толстого "Анна Каренина". Хотя книга большого объема, героев маленьких детей немного, но они стали главным мостом для развития событий в произведении. В статье через детей из романа Анны Карениной показано влияние детской личности, семьи и общества на детскую психологию.

Ключевые слова: *ребенок, герой, личность, семья, родители, общество, предательство, детство*

Annotation*:* The following article gives an opinion and experiences about the characters of children in the story of Anna Karenina by Russian novelist Leo Tolstoy. The article shows the personality of children, the influence of society on children's psychology in the novel of Anna Karenina.

Key words: *child, hero, personality, family, parents, society, betrayal, childhood.*

Anna Karenina jahon adabiyoti durdonalaridan biri hisoblanadi. Asar 1875 yildan boshlab kichik qismlarga bo’lib-bo’lib chop etila boshlagan va 1877 yilgacha davom etgan. Asarda asosan umumiy uch juftlik ya’ni, bosh qahramon Anna Varonskiyning muhabbati va ularning fojeaviy qismatlari, Levinning hayotda uchragan har qanday qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'zligini kashf qilganligi va Kity bilan baxtga erishganligi va Dolli bilan Stefan Obolonskiyning turmush tarzlari bir chiziqda tasvirlangan (Angela N. Blount, 2018). Yozuvchi shu ikki qahramonning taqdirini yoritib berar ekan beixtiyor Rossiya davlatining XIX asrdagi voqea hodisalarini o'z o'quvchisiga yetqazib bera olgan. XIX asrdagi Rossiya jamiyati va undagi aristokratlar odob axloqlari, oila va burch, taqdir va erk, muhabbat va xiyonat, jamiyat va shaxs asarda chuqur tahlil qilingan". Har qanday baxtli oila bir biriga o'xshashdir va ha bir baxtsiz oila o'z yo'lida baxtsizdir" deb yozilgan sitata butun asarning asosiy g'oyasini bera olgan. Shunday muammoli jamiyatni asar orqali tahlil qilar ekanmiz, o'sha davr bolalarini shunchaki chetda qoldirish mushkul. Bolalarning hayoti va taqdiri, go'zal yoshlik va beboshligi asarga o'zgacha ruh bag’ishlagan. Kitobxon asar bolalari o'ynasa xayolan o'ynaydi, yig'lasa ular bilan yig'lab, xuddi ularni ovutgandek bo'ladi. Har bir jamiyatda bo'lganidek, baxtli jamiyatda o'sib ulg'aygan bolaning ruhiyati bilan baxtsiz oilada tarbiya topgan farzandlar orasida bepoyon farq mavjud. Asarni o'qish jarayonida bir nechta yosh qahramonlar bilan o'sha davrga qaytib qolishimiz mumkin.

Bosh qahramon Anna va Aleksey Kareninalarning farzandlari Seryoja asar boshidan o'quvhi bilan birga bo'ladi. Hamma jamiyatdagi boy qatlam bolalaridek Seryoja ham boshida to'liq oilada tarbiya topadi. Asosan onasi bilan birga bo'ladi. Yoshligidan har xil sohalarga qiziqtiriladi. Otasi yuqori mansabdor shaxs bo'lganligi uchunmi uni yaxshi ko'rsada har doim u bilan suhbat qilishdan hadiksirab turardi. Anna sabab ahyon-ahyonda Varonskiyga duch kelganda bolalarcha onasini begona erkakdan qizg’onardi. U bilan uchrashib qolganda beixtiyor otasidadek viqor bilan yurardi, xuddi ko’zlari bilan “Bu yerda nima qilyapsan?” degandek qarash qilardi

(Tolstoy, 1980). Ammo onasi Anna Kareninaning xiyonati sabab, Annaning o’z o’g’lini xohlagan paytda ko’rish huquqidan mahrum qilingan edi. Seryoja esa onasini sog’inib usiz azob chekar edi. Bu holat ayniqsa u tog’asi Stefan Arkadyevich bilan bo’lgan uchrashuvda yaqqol ko’zga ko’rinadi. Tog’asi bilan suhbat chog’ida onasini eslamaslikni takrorlasada, aslida u azoblanayotganligini bildirib qo’yadi. Shuning uchun ham u juda siqilib yig’laydi va uni yolg’iz qo’yishlarini, hech kimni ko’rish istagi yo’qligini aytadi (Petrov, 2021). O'zi istagan paytda u bilan birga bo'la olmasligi unga azob berardi. Har qanday zamonda xiyonat qoralanadi, ayniqsa u ayol zoti tomonidan sodir etilgan bo’lsa. O’z oilasidan, ayniqsa farzandining kamolotini qurbon qilgan Anna jamiyatda qidirgan baxtini topa olmaydi hattoki u yana farzandli bo’lsada. Anna Varonskiy ismli, oliy martabali, yosh va ko’rkam yigitga ko’ngil qo’ydi, garchi u sog’lom bir oilaning mag’rur bekasi bo’lsa ham. Ular qiz farzandli bo’lishdi. Farzand orqali oila o’z baxtini topadigandek tuyuladi kitobxonga ammo xiyonat asosida, boshqalarning baxtsizligi evaziga qurilgan oila baxt va xotirjamlik topa olishmaydi. Onasi Anna Kareninani o'limi haqidagi xabarga hech ishonmaydi va onasining mehrini juda ko'p qumsaydi. Seryoja orqali Lev Tolstoy jamiyatda ajrashgan oilalarning bolalarini qanday taqdir kutayotganini tasvirlamoqchi bo'ladi. Aynan Seryoja qahramoni kitobxonni ochiq qolgan savollarga javob berishga undaydi. Chunki asarda uning taqdirigina ochiq yakunlanmagan va asarning ayniqsa bosh qahramon Annaning fojeaviy taqdirini aynan shu qahramon bilan yanada dramatik talqin qiladi.

Romanni keng boyitgan va o’quvchi e’tiborini torta oladigan yana bir yosh qahramon Levin va Kitining farzandi Dmitriydir. Dmitriy qahramoni orqali romannavis Rossiya jamiyatidagi baxtli oilada unib o'sgan baxtli farzand timsolini yaratgan. Albatta asar yakunida paydo bo'lgan Dmitriy obrazining hissiyot va kechinmalari haqida ma’lumot yo'q. Biroq, birgina shu bola uning otasi Levin obrazini hayotga qarashini o'zgartiradi. Otasi allanechuk odamni ta'sirlantiradigan hissiyotlarni va mas’uliyatni chuqur his qiladi. Muhabbatdan yaralgan bu farzand Levin va uning onasi uchun to'liq baxt hissini bera oladi.

Anni obrazi asarda ko'p tilga olinmasada, asardagi muammolarning asosiy qismi u bilan bog'liqdir. Anni Anna Karenina va Varonskiyning muhabbati mevasidek tuyulsada, keyinroq Annaning iztiroblari sabachisi bo'ladi. Onasi Annini juda sevadi, Anni onasining yonida bo'lsada, onasi unga birinchi farzandi Seryoja kabi mehr bera olmaydi, ya'ni o'g'lini sevganchalik qizini seva olmaydi. Bu obraz Annani jamiyatdan va onalik baxtidan mahrum qilgandek. O'g'li Seryoja uzoqdaligi uchun baxtni his qilmaganidek, Anni yonida bo’lsa ham Anna baxt hissini tuya olmaydi. Annaning ruhan azoblanishi uni jamiyatdan uzib qo'yadi va fojeaviy o'limi sabab, uning kichkinagina qizchasi Anni Varonskiylar oilasi bilan qoladi. Garchi uning keyingi taqdiri ham xuddi Seryojadek ochiq qolgan bo'lsada, ko'p savollarni kitobxonlarda qoldirgan. Kitobxon notinch jamiyatda o'sayotgan bolalarning keyingi taqdiri haqida o’zlari xulosa chiqara oladilar.

Asarning boshida gavdalantirilgan Obolonskiy va Dollining 6 nafar farzandlari ham romandagi voqealarning tashkillashtirib beradigan asosiy qahramonlardir. Sergey va Dollining 6 nafar shirin farzandlari bor. Ammo har bir

davrda, amaldorlar oilaviy hayoti mujmalroq bo’lganidek, bu oilada ham oilaviy kelishmovchiliklar yetarlicha edi. Sergey boy zodagonlardan va Rossiya davlati uchun xizmat qiladigan shaxs edi. Uning ayoli Dolli esa mehribon ona, faqat oilaviy shirin tashvishlar bilan band edi. Shirindan-shakar farzandlari u uchun eng qimmatli boyligi edi. Afsuski, ketma-ket farzand dunyoga keltirgan Dolli deyarli o’zi uchun yashamaydi. U farzanlarining tarbiyasi, ularni oq yuvub oq tarash bilan tongni tunga ulaydi va erining xiyonatidan azoblanadi.

